

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 20-iyun
№25 (3139)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

*Armiya -
hayot*

maktabi

*Maqsad bitta -
Vatan tinchligi*

BU SHARAF MAYDONIDA

BIR SAFDAMIZ!

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@umail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Inson qadri uchun

MUROJAATLAR E'TIBOR MARKAZIDA

“

Mamlakatimizda aholi manfaatlarini himoya qilish, turmush darajasini oshirish va inson qadri ulug'lash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda tashkil etilgan sayyor qabullar fuqarolarning muammolariga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev tomonidan o'tkazilgan navbatdagi sayyor qabul ham ana shunday maqsadlarga qaratildi. Ochiq muloqot tarzida tashkil etilgan tadbirda mas'ul harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'limi vakillari, kadrlar, moliya, huquq, uy-joy masalalari mutaxassislari ishtirok etdi.

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida bo'lib o'tgan tadbirda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan fuqarolar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'zlarini uzoq vaqtdan beri qiynab kelayotgan va yechimini kutayotgan masalalar xususida murojaatini bayon etdi. Murojaatlar asosan, harbiy xizmatga chaqiruv, harbiy xizmatni o'tash tartibi, uy-joy ta'minoti, moddiy yordam va boshqa ijtimoiy masalalarni qamrab oldi. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularga yaratilgan sharoitlar, imtiyozlar va mavjud muammolarning yechimi qabul kun tartibining asosiy masalasi bo'ldi.

Mudofaa vaziri o'rinbosari har bir fuqaroning murojaatini diqqat bilan tingladi va muammolar mazmunini aniqlashtirish yuzasidan savollar berib, ko'tarilgan masalalarni atroflicha o'rgandi. So'ng ularning muammolarini hal etish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berdi. Shuningdek, qabul davomida fuqarolarga ularning huquqlari va



Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV



“Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmashimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat”.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni



majburiyatlari, mavjud qonunchilik normalari bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Qabul davomida 50 ga yaqin murojaat tinglanib, ularning asosiy qismi o'sha yerning o'zida, mutasaddi vakillar va murojaatchilar bilan yuzma-yuz muloqot jarayonida hal etildi. Huquqiy maslahat talab etadigan masalalar bo'yicha fuqarolarga

tegishli tushuntirishlar berildi, hal etilishi zarur bo'lgan murojaatlar bo'yicha esa aniq muddatlar belgilanib, Mudofaa vazirligining tegishli boshqarmalariga topshiriqlar yuklatildi va ularning ijrosi nazoratga olindi. Shuningdek, qabul davomida fuqarolar o'zlarini qiziqtirgan huquqiy, tibbiy va uy-joy masalalari bo'yicha savollarga mutaxassislardan javob olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Tadbir yakunida Mudofaa vazirligi tomonidan fuqarolar bilan ochiq muloqotni muntazam davom ettirish, ularning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va qonunchilik doirasida hal etishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratilishi, shu kabi qabullarning tizimli ravishda o'tkazilishi fuqarolarning harbiy sohaga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Fuqarolar qabuli davomida bildirilgan fikr-mulohaza va takliflar Mudofaa vazirligi faoliyatini takomillashtirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda inobatga olinishi ta'kidlandi.

Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
“Vatanparvar”



Xorij tajribasi

HUMAN RESOURCE MANAGEMENT

(INSON RESURSLARINI BOSHQARISH) –

XORIJIY ARMIYALARNING ZAMONAVIY KADR SIYOSATI

Harbiy kadrlar har qanday davlat armiyasining eng muhim va ajralmas qismidir. Aynan inson omili Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va salohiyatining tamal toshi hisoblanadi, keyingi ustuvorlikda esa qurol-yarog' va harbiy texnika sanaladi.

Umuman olganda, armiyaning salohiyati va samaradorligi ofitserlar, serjantlar va askarlarning malakasi, ularni o'qitish, tayyorlash, lavozimga tayinlash va qobiliyatlaridan oqilona foydalanishga bog'liq.

Inson resurslarini boshqarish (Human Resources Management – HRM yoki HR) tashkilotning xodimlarni ishga qabul qilish, boshqarish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ichki siyosati yoki ichki kompleks funksiyasi hisoblanib, inson faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha jarayonlar va dasturlar HRMning bir qismidir.

Xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, inson resurslari – bu tashkilot yoki muassasada faoliyat yuritadigan malakali mutaxassislar. Inson resurslarini boshqarish aslida xodimlarni boshqarish bo'lib, bunday xodimlar ba'zan **"inson kapitali"** hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy va xususiy inson salohiyatini shakllantirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilsa, inson kapitali va resurslarining **sifat darajasi** oshsa, har qanday **tashkilotning raqobatbardoshligi ortadi**.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni **Sh.M. Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi**: "Mamlakatimizda kadrlar boshqaruvi tizimini **tubdan isloh qilib**, kadrlarga bo'lgan talab va taklifni o'rgangan holda sohalarni kerakli va sifatli kadrlar bilan ta'minlash, kadrlarni saralab olish va ishga qabul qilishda **eng xolis va shaffof metodlardan foydalanish**, ularning bilimlarini zamon talablariga mos ravishda boyitib borgan holda **yurtimiz ravnaqiga hissa qo'sha oladigan kadrlar** sonini ko'paytirib borish hamda **uzoq yillarga mo'ljallangan strategik rejalar** orqali istiqbolli **kadrlar zaxirasini** shakllantirib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir".

Xorij armiyalarida inson resurslarini boshqarish (HR) departamentlarining quyidagi taktik funksiyalari mavjud:

kadrlar strategiyasini ishlab chiqish va xodimlarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish; malakali kadrlar bilan butlash va kadrlar zaxirasini yaratish; xodimlarni o'qitish va salohiyatini rivojlantirish; xodimlarning motivatsiyasi va rag'batlantirishini boshqarish; texnik va ta'minot xizmatlari.

Harbiy kadrlar siyosati davlat

kadrlar siyosatining ajralmas qismi bo'lib, harbiy kadrlarni tanlash, tayyorlash va lavozimga tayinlash sohasida shakllantirilgan hamda qonuniy ravishda mustahkamlangan **maqsadlar, tamoyillar va faoliyat shakllari** majmuidir.

Xorij davlatlarida kadrlarni boshqarish siyosatining (HRM) asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- Qurolli Kuchlarni yuqori malakali harbiy kadrlar bilan butlash, jumladan tanlash, tayinlash va lavozimdan bo'shatish, kadrlar almashinuvi va butlanganini tahlil va prognozini amalga oshirish;
- moslashuvchan va tezkorlik bilan javob berishga qodir bo'lgan yuqori professional, mas'uliyatli



jamoani yaratishga qaratilgan yaxlit strategiyani shakllantirish;

- harbiy kadrlar salohiyatini rivojlantirish, malaka darajasini baholash, lavozimda o'sishini tashkil etish;
- xizmat (*mehnatni*) tashkil etish va rag'batlantirishni takomillashtirish, xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilish;
- jamoa shartnomalarini tuzish, xodimlarning mehnat intizomini nazorat qilish.

Harbiy kadrlar siyosatining asosiy tamoyillari:

- xodimning umumiy va maxsus qobiliyatlari, shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini hisobga olish, kadrlarni tanlash va joylashtirishni sifatli tashkil etish;
- kadrlar bilan ishlash sohasidagi qonunchilikka rioya qilish;

- kadrlar ishida katta tajribaga ega bo'lgan tajribali kadrlar va yosh, tashabbuskor mutaxassislarning balansini ta'minlash;

- tizimni raqamlashtirish hisobiga inson omilini minimallashtirish;
- xodimlarning mehnatidan ularning malakasi, tayyorgarligi va ma'lumotiga muvofiq foydalanish, xodimlarni tarkibiy bo'linmalar o'rtasida oqilona taqsimlash.

Xorijiy armiyalarda kadrlar siyosatini yuritishda tashqi va ichki muhitga xos bo'lgan omillar hisobga olinadi, xususan:

- Qurolli Kuchlarni rivojlantirish strategiyasi;
- davlatning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari;



- harbiy xizmatchi (*xodimlarning*) miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari.

Zamonaviy sharoitlarda **kadrlar siyosatiga qo'yiladigan yangi talablardan biri** bu kadrlar siyosati yetarlicha **moslashuvchan (adaptiv)** bo'lishidir. Kadrlar siyosati bir tomondan **barqaror, boshqa tomondan esa dinamik, ya'ni geosiyosiy vaziyatga va iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlarga hamda Qurolli Kuchlar strategiyasi va qo'shinlar taktikasidagi o'zgarishlarga muvofiq shakllanadi**.

So'nggi vaqtlarda kadrlar bilan bog'liq jarayonlar va munosabatlarni aks ettiruvchi **yangi atamalar** va **fan yo'nalishi** paydo bo'ldi. Misol uchun: xodimlarni boshqarish (*menejment*), kadrlar faoliyatini tekshirish (*audit*), xodimlar faoliyatining nazorati (*monitoring*), xodimlarga maslahat berish (*konsalting*) va umuman **"kadr texnologiyalari"**.

Shu bilan birga yaqin istiqbolda harbiy kadrlar siyosatining ilmiy va uslubiy ishlanmalarini yagona fanga – **kadrologiya faniga** integratsiya qilish, asoslantirish va rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Umuman olganda, **kadrlar siyosati murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib**, kadrlar bilan ishlashda strategik va tahliliy yondashuvni ifoda etadi. Bundan kelib chiqib, xorijiy armiyalarda **kadrlar siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kadrlarni saralab olish va joy-joyiga qo'yishning shaffof va adolatli tartibini joriy etish;
- Qurolli Kuchlarni (*qo'shinlarni*) butlash va kadrlar zaxirasini yaratish tizimini takomillashtirish;
- davlatning harbiy tashkilotiga (*Qurolli Kuchlarga*) harbiy xizmatga ixtiyoriy ravishda kiruvchi fuqarolarni jalb qilishning markazlashgan va boshqariladigan tizimini yaratish;
- huquqiy va harbiy-huquqiy me'yorlarni takomillashtirish, qabul qilingan harbiy qonunlarni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;
- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatning ijtimoiy infratuzilmasini takomillashtirish va jozibadorligini oshirish;
- harbiy ta'lim tizimida yuqori malakali, liderlik va boshqaruvchanlik ko'nikmalariga ega, zamonaviy fikrlashga qodir harbiy kadrlarni tayyorlash.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Qurolli Kuchlarning zamonaviy **kadrlar siyosati (HRM)** bu kadrlar bilan ishlashning innovatsion **yondashuvlari, ilg'or uslublarini o'zida mujassamlashtirgan** holda, tashqi va ichki omillarga moslashuvchan bo'lgan yuqori **professional jamoani yaratishga** qaratilgan **strategiyadir**.

Bundan kelib chiqib, ichki va tashqi omillar, dunyoda hamda mintaqada yuzaga kelgan **geosiyosiy vaziyat, real xavf va tahdidlarni** inobatga olgan holda **kadrlar siyosatini rivojlantirishga** qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

**Rezervdagi polkovnik
Azizjon TOIROV,
Mudofaa vazirligi
Kadrlar bosh boshqarmasi
bosh mutaxassisi**

Mardi maydonlar



QUYOSH TIG'I VA OY NURI OSTIDA

Aka, kimnidir sevganmisiz? Hammada bo'ladi-ku, ilk sevgi! Ha, unda sizning qalbingiz ham meniki singari ado bo'lgan ekan-da. Aslida topishmagan ko'ngillar kuylab o'tadi. Bu chin muhabbat! Aytganча, muhabbat deganda Vatan ishq ham kishini bedor qilar ekan, a? Bugun shu haqda gaplashsak, nima deysiz?

Yaqinda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli "Muborak" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan mashg'ulotlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashib qoldim. Aka, ishonasizmi, ular yurti uchun hech narsadan tab tortmaydi. Shunga o'rgangan-da. Yovga tik boqa oladigan, qalbida ona Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati jo'sh uradi.

Bahodirlarning tarbiyasi shunday bo'lgan. Yurt qoni, joningga aylansin!

Bilasiz, "Muborak" poligoni ayni kunlarda juda issiq. Ha, havo harorati soniya sari ko'tarilib boraveradi. Kunduzi taxminan 45-50 darajadan oshadi. Mabodo, shabada turib qolsa, u ham juda iliq va quruq bo'ladi. O'ynoqlab keladi-da, yuz-ko'zingizni mayin siypalab o'tadi. Quyoshdan qovjiragan maysalar, tarasha qotgan - ajin tushgan zamin qalbni o'rtaydi. Bu yerda tabiat bilan tillashish kerak. Aks holda, u sizni qabul qilmaydi. Ha, ba'zida Vatan ham farzandlarini ehtirom ila tanlaydi, aka. O'ziga munosib bo'lishini istasa kerak-da. Ishqilib, harbiy xizmatchilar ana shu joyda tunni tongga ulab, kasbiy bilimlarini oshirishga ahamiyat qaratadi. Bu ular uchun or, nomus va sharafdir.

- Bugun har qaysi davlat o'z harbiy xizmatchilarining jangovar shayligini yanada oshirish, topshirilgan vazifalarni bajarish ko'nikmalarini mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratmoqda, - deydi mayor Uchqun Shomurodov. - Bu bejiz emas, albatta. Chunki yaxshi ko'nikmaga ega, o'ziga ishongan, mahoratini oshirib kelgan jangchi hech qachon to'xtab qolmaydi. Yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri baholaydi va shu asnoda ish ko'radi. Biz shaxsiy tarkib bilan olib borilgan o'quvlarda

komandirlarning boshqaruvchanlik qobiliyatini oshirishga, shuningdek saflarimizga yangi kelib qo'shilgan harbiy xizmatchilarning yo'nalishlar bo'yicha bilimlarini orttirishga ahamiyat qaratamiz. Jangchi bir musht bo'lishi kerak. Shunda g'alaba qozoniladi. Qolaversa, qo'shin turlarining vazifalaridan kelib chiqib, hamkorlikni tashkil etish ham diqqat markazida bo'ladi.

Aka, hech tankni yaqindan ko'rganmisiz? Juda vahimali, a? Undan chiqayotgan qasir-qusur ovoz quloqni qomatga keltiradi. Ayniqsa, nishon tomonga otilgan snaryadning gumburlashi ko'ngilga dahshatli vahima soladi.

- Biz olib boriladigan har qanday mashg'ulotga panja ortidan qarashga haqqimiz yo'q, - deydi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug bosh serjanti Ahror Xatamov. - Chunki Vatan ishonib,

egnimizga harbiy libosni kiydirdi, mas'uliyat yukladi. Agar mana shu mas'uliyatni to'liq anglasangiz, tunlaringiz bedor bo'ladi. Ko'ryapsizmi, hammasi qalban his etish, qilayotgan ishingizga

sidqidildan yondashish kerak. Gap, ayniqsa Vatan tinchligi yo'lida ketsa. Mashg'ulotlarda eskirgan, zamon talablariga javob bermaydigan vazifalar bajarilmaydi. Chunki bugun sharoit ham, vaziyat ham boshqa.



Uni tahlil etishimiz va o'rganishimiz kerak. O'quvlarda esa orttirilgan bilimlar o'rtaga tashlanadi va eng ahamiyatli amaliyotga joriy etiladi.

"Muborak" poligonida doimiy shaxsiy tarkib bilan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Otish, muhandislik, maxsus taktik, topografiya va taktik tibbiy tayyorgarlik kabi yo'nalishlarda



TOBLANAYOTGAN ALPLAR

harbiy xizmatchilar mahoratini oshiradi.

Tarixdan ma'lumki, buyuk sarkardalarimiz o'z qo'shinlarining jangovar tayyorgarlik darajalarini yuksaltirishga jiddiy e'tibor qaratgan. Jangchilar nafaqat mahoratli qilichboz bo'lgan, balki ot ustida ham yaxshigina harakatlana olgan. Ikkisini jamlagach, yengilmas lashkar qudrati yanada

o'rinli foydalanish hamon muhim ahamiyat kasb etyapti. Faqat qilichlar o'rnini qurollar, otlar o'rnini harbiy texnikalar egalladi. Bu zamonaviylashish, aslida. Shunday ekan, ana shu vositalarning imkoniyatlarini o'zlashtirish, o'rganish va qo'llay olish san'atini egallash –



ortib borgan. Bu esa dushman kuchlarini tez va oson yakson etishda qo'l kelgan. To'g'ri, u zamonlarda asosiy jang yuqorida aytilganidek olib borilgan. Bugunchi? Bugun hammasi o'zgardi. Ammo jang olib borish taktikalari o'sha-o'sha, ya'ni vaziyatni oldindan to'g'ri baholay olish, aql-idrok maydoni, imkoniyatlardan

professionallik hisoblanadi. Shuning uchun ham azamatlar ham kunduzgi, ham tungi sharoitlarda berilgan vazifalarni bajaradi. Yakka, guruh, vzvod va batalyon tarkibidagi topshiriqlar birgalikda bajariladi. Quyosh tig'i, oy nuri ostida harbiy xizmatchilar Vatanning dardini, himoyasi uchun mas'uliyatni his qilib, mahoratlarini oshiradi.

Darvoqe, okrugning "Termiz" umumqo'shin poligonida ham yilning to'rt faslida harbiy xizmatchilar amaliy mashg'ulotlarni olib boradi. Bu safargi o'quvlar vzvod taktik guruhi tarkibi bilan bo'lib o'tdi.

Yigitlar 10 dan ortiq o'quv joyida yo'nalishlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajardi. Jamoaning birdamligini oshirishga ahamiyat qaratildi.

– Jangovar tayyorgarlik samaradorligini oshirish va harbiy mahorat sirlarini puxta o'rganish har bir yurt

himoyachisining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan, – deydi kapitan Ahadjon Abidov. – Yangi o'quv yili doirasida bo'linmalarning uyushqoqlikdagi harakati, nostandart vaziyatlarda berilgan topshiriqni o'z vaqtida va sifatli bajarish imkoniyatlari sinovdan o'tkazilmoqda. Umuman olganda, ushbu mashg'ulotlar davomida dunyo va mintaqada yuz berayotgan harbiy siyosiy vaziyat, qurolli to'qnashuvlar chuqur tahlil etilgan holda amaliyotga joriy etib kelinayotgan taktik harakatlar o'zlashtirilmoqda.

Aytish kerakki, vazifalar haqiqiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda bajarilayotgani azamatlarning kasbiy tayyorgarliklarini yanada oshirmoqda. Xususan, nishonlarni mo'ljalga olish davomida har bir omil – shamol esishi, namlik, qiyalik va pastlik, xullas, barchasi hisob-kitob qilinadi. O'rganiladi va shundan so'ng tepki bosiladi. Aslida bu yutuqlar tinimsiz olib borilgan mashg'ulotlarda qo'lga kiritilyapti. Chunki ular har kuni, har on o'quvlarda toblanadi. Mashg'ulotlarda ko'zi qotadi. Qo'li qurol tepkisiga borar-bormas, uzilgan o'q, albatta, nishonning qoq markaziga qadaladi. Tajribali-da.

Toliqqan, charchagan quyosh tog'lar ortiga berkinib, oyga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Ammo kasbiy tayyorgarlikka hamisha e'tibor qaratib kelayotgan harbiylar ana shu cheklangan sharoitda ham mashg'ulotlarda qatnashmoqda. Yigitlar tun bag'ridagi nishonlarni bir o'q bilan yo'q qilyapti. Muhimi, jarayonlar har bir harbiy xizmatchini o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilayotgani bilan ham ahamiyatli bo'lmoqda.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



O'quv-uslubiy yig'in

QO'SMONDAGI G'AI ABA

Aerodrom – aviatsiyaning jangovar pozitsiyasi hisoblanadi. Aerodromdan foydalanish, uni saqlashda mutaxassislarning asosiy vazifasi har doim va har qanday ob-havo sharoitida ham parvozlar o'tkazishga doimiy tayyorligini ta'minlashdan iborat.

YERDAN BOSHLANADI

Parvozlar xavfsizligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri bu aerodromni parvoz o'tkazishga to'g'ri tayyorlashdir. Bu esa, o'z navbatida, ushbu vazifani bajarish uchun jalb etilgan mutaxassisdan yuqori nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishni, shuningdek qo'yilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashish va vijdonan bajarishni talab etadi.

Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi boshqaruv organlari, qo'shilma, harbiy qism va muassasalarning 2025/2026-o'quv yili uchun tayyorgarlik rejasiga asosan, hamda aviatsiya texnik qismlarining aerodromdan foydalanish bo'linmalari mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug hududidagi harbiy qismda o'quv-uslubiy yig'in tashkil etildi.

Unda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari obyektlarini joriy ta'mirlash, aerodromlardan to'g'ri foydalanishni tashkillashtirish, parvozlar



xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlarning yakuni sarhisob qilindi. Parvozlar xavfsizligini ta'minlash, aerodromlardan foydalanish bo'yicha asosiy rahbariy hujjatlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'liq tahlil qilib, o'rganildi.

Shuningdek, talafot yetgan aerodrom sun'iy qoplamalarini tezkor tiklash ishlari bajarildi, yaroqsiz temirbeton plitalari almashtirildi hamda zamonaviy aerodromdan foydalanish texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tajribalar oshirildi. Vertolyot maydonchalari uchun yangi yer uchastkalarini tanlash hamda taxometr, teodolit

va nivelir kabi maxsus asboblardan yordamida topogeodezik muhandislik qidiruvlarni dala sharoitida amalga oshirish bo'yicha nazariy bilimlar mustahkamlandi va amaliy ko'nikmalar shakllantirildi.

Aerodromlarning uchish maydoni tuproqli qismidagi tuproq xossalari o'rganish uchun mo'ljallangan PLL-9 dala laboratoriyasi va PDU-MG 4.01 tuproq zichligini aniqlovchi asbobdan foydalanish tartiblari o'rganildi. "Ustoz-shogird" an'alarini davom ettirgan holda, tajribali harbiy xizmatchilar o'z bilim va ko'nikmalarini yosh mutaxassislarga bilan bo'lishdi.

Bundan tashqari, o'quv-uslubiy yig'in ishtirokchilarining jismoniy darajasi aniqlandi hamda ularning maxsus tayyorgarliklari sinovdan o'tkazildi.

Harbiy xizmatchilarning mamlakatimiz tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish hamda ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida, Qashqadaryo viloyatida joylashgan madaniyat maskanlariga ekskursiya tashkillashtirildi.

O'quv-uslubiy yig'in yakunida ilg'orlar e'tirof etildi hamda ularga esdalik sovg'alar topshirildi.

**Podpolkovnik
Olimjon TADJIBAYEV,
MV HHMQ va HHK qo'mondonligi
xizmati boshlig'i**



Bitiruv

ILK QALDIRG'OCHLAR KATTA HAYOTGA

Xorazm viloyatining Urganch shahrida ei-yurt istiqloli uchun kurashgan, bunga o'z hayotini bag'ishlagan ajdodimiz nomini ulug'lash, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyning ilk bitiruvchilari katta hayotga kuzatildi va ularga tantanali ravishda diplomlar topshirildi.

KUZATILDI



Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasida o'tgan tantanada Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Xorazm viloyati hokimligi rahbariyati, nuroniylar, Qurolli Kuchlar faxriylari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilar, o'quvchilar va ularning yaqinlari ishtirok etdi.

Tantanali marosimda so'z olganlar tomonidan keyingi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari uchun malakali kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, shu maqsadda 2023-yil 12-iyun sanasida Prezidentimizning "Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingani ta'kidlab o'tildi.



Ta'kidlash joizki, ushbu qarorga muvofiq, yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyati va jismoniy tayyorgarligini yanada rivojlantirish maqsadida Urganch shahridagi Xalq so'zi ko'chasida zamonaviy loyiha asosida 300 o'rinli harbiy akademik litsey barpo etilgan edi.

Ta'lim muassasasi 2023/2024-o'quv yilidan faoliyat boshlagan. Zamonaviy binoda yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Ular bu yerda aniq fanlar yo'nalishida ikki yil ta'lim oladi.

O'quv xonalari eng so'nggi rusumdagi multimedia va kommunikatsiya vositalari bilan

jihozlangan. Litsey axborot-resurs markazida 7 mingdan ortiq o'quv va badiiy kitob, 11 mingdan ortiq elektron adabiyot bor. U viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarmog'iga ulangan.

Shuningdek, bu yerda Jaloliddin Manguberdi muzeyi, yopiq turdagi sportzal hamda ochiq maydondagi sport shaharchasi, saf maydoni, oshxona va yotoqxona mavjud. O'quvchilar darsdan tashqari, o'ndan ortiq fan, axborot texnologiyalari, ijodiy to'garaklar hamda sport mashg'ulotlarida ishtirok etadi. Bepul kiyim-kechak, to'rt mahal issiq ovqat bilan ta'minlanadi.

Mazkur ta'lim muassasasini tamomlagan bitiruvchilarga mamlakatdagi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda o'zlari to'plagan ballning 30 foizi miqdorida, boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa 15 foizli miqdordagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyozlar belgilangan.

Ta'kidlash joizki, ushbu dargohda ta'lim olgan yoshlar uchun bu katta imkoniyat. Shu bilan birga ilk qaldirg'ochlar yaratilgan sharoitlardan keng foydalanib, ortda qolgan yillar davomida 397 ta milliy va xalqaro sertifikatni qo'lga kiritdi.

Marosimda ham aynan o'tgan davr mobaynida o'quvchilarning ilmfan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, innovatsion ishlanmalari tahsinga sazovor ekani aytilib, kelgusida Vatanimiz tinchligi-yu ravnaqi yo'lida bor kuch-g'ayratini safarbar etishlari ta'kidlandi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari va harbiy orkestr jamoasining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Leytenant
Sayyodbek QURBONOV,
jurnalist**



Mahorat

EKIPAJ JIPLIGI – NATIJA GAROVI!

Kechga yaqin bolalar bog'chasidan o'g'limni olarkanman, hol-jonimga qo'ymay, o'yinchoqlar do'koniga kirishimizni so'rayverdi. Men ham uni finchlantirish uchun "Xo'p, o'sha do'konning yonidan o'tsak, albatta kiramiz" deya qutuldim. Afsuski, farzandim aytgan do'kon bizni uzoq kuttirmadi...

Qo'limni qo'yvorgancha yugurib bordi-yu, do'kon burchagida turgan jimjimador quti ichiga mustahkam o'rnatilgan tankni quchoqlagancha yonimga keldi. Bildimki, o'g'lim bu do'konga birinchi marotaba kirmayotgan edi. Sotuvchidan narxini so'raganimda ancha baland narxni aytganicha, boshqa xaridorlar bilan savdosini davom ettiraverdi. O'yinchoq tank masofadan boshqariluvchi pult bilan yurarkan. Narxi qimmatligi sabab boshqa o'yinchoq oldirishga urinishlarim zoye ketdi. Uning quchog'idagi quti yanada mahkam qisilganicha, yoshga to'lib turgan ko'zlari tankni xarid qilishimga sabab bo'ldi. O'sha kuni yarim tungacha tank o'ynadik... Keyin esa "Katta bo'lsam, tankchi bo'laman!" deganicha o'yinchog'ini quchib uxlab qoldi...

Ertasi kuni tong saharda hamkasblarim bilan Toshkent harbiy okrugiga qarashli "Chirchiq" dala-o'quv maydoniga yo'l oldik. Mashinaning sokin chayqalishi xuddi allalagandek ichki xotirjamlik bag'ishlar, ko'zlarni beixtiyor uyquga tortardi. Quyosh tog' yonbag'irlaridan bosh ko'targan bo'lsa-da, havo isib ketmagan, ozgina salqini ham bordek. Mashinaning chayqalishlari tinib, haydovchi va "tankodrom" posti navbatchisining savol-javobidan sergak tortdim. Biz manzilga yetib kelgandik...

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kursantlari allaqachon amaliy mashg'ulotlarga kirishib ketgan, ortidan chang qoldirganicha katta tezlik bilan tanklar "poygasi" bo'layotgandi go'yo. Keyin bilsak, birinchi jamoa otish vazifasini o'tab bo'lib, dastlabki holatga – finishga qaytayotgan ekan. Ikkinchi jamoaning amaliy mashg'ulotlari kadrlarimizga muhurlanishi uchun foto va video uskunalarini hozirlaganicha belgilangan nuqtalarga joylashdik.

Qisqa signaldan keyin kursantlar o'z o'rinlarini egalladi. Keyingi signal T-72 tankiga qurol yuklash va uchinchi signal mashg'ulotga kirishish bo'ldi. Tanklar harakati bir xilda boshlandi. Kursantlar zirhli jangovar mashinalarni mohirona boshqarish, belgilangan nuqtalarda qisqa to'xtash va harakatni davom ettirgan holda nishonlarni yo'q qilish bo'yicha sinovlarini amalga oshirdi.

– Bugun birinchi marta tankdan jangovar o'q bilan nishonga qarata o't ochdik. Bu holatni bolaligimdan orzu qilgan edim. Ammo jarayon men o'ylaganimdan ancha murakkab ekan, – deydi kursant Otabek Norboyev. – 1 600 metrda nishonni yakson etish esa undan ham qiyin. Lekin ushbu vazifani ekipaj a'zolari bilan birgalikda muvaffaqiyatli uddaladik. Biz otgan uchta snaryaddan ikkitasi nishonga aniq tegdi. Mashg'ulot o'tkazadigan trenajyorlardagi imkoniyatlar reallikka juda yaqinligi sabab bugungi sinovlarda unchalik ham qiyinchilikka uchramadik.

Boshqaruvimizda bo'lgan T-72 tankning harakatlarida ham xato va nuqsonlar aslo kuzatilmadi.

Tankchilarni tark etib, jamoamiz bilan ikkinchi nuqtaga yo'l oldik. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazilayotgan ikki manzilning orasidagi masofa anchagina edi. Yovvoyi o'tlar egallagan yo'lak bo'ylab sekin yurib borayotgan xizmat mashinasi ichida atrofni tomosha qilib ketar ekanman, o'g'limning "Katta bo'lsam, tankchi bo'laman!" degan so'zlari quloqlarim ostida jaranglardi. Beixtiyor yuzimga tabassum yugurdi...

Keyingi o'quv joyi. Bu yerda o'tkazilayotgan mashg'ulot ham juda qiziqarli bo'lib, BTR A-82 zirhli texnikasi bilan to'siqlarga urilmasdan 1,5 kilometr masofani bosib o'tishdek vazifani uddalayotgan kursantlar, suvli to'siqlarda mashqlarni bajarayotgandi. To'g'risini aytganda, katta suv havzasida jangovar texnikaning suzib yurishini jonli tarzda birinchi marta ko'rib turishim edi.

– Bugungi amaliy mashg'ulotda BTR A-82 texnikasini belgilangan joylardan betalafot olib o'tib, manzilgacha xato qilmasdan boshqarish vazifasi qo'yilgandi. Mazkur topshiriqning qiyin jihati masofaning yarmi suvlikdan iborat ekanligi. Shuning uchun, eng avvalo, suvosti holatini aniqlab olishimiz kerak, – deydi kursant Karimboy Raxmetdinov. – Toshidan iborat bo'lsa, texnikaga ziyon yetishi, botqoqlik bo'lsa, botib qolishi va o'tlardan iborat bo'lsa, suv parragiga o'ralib qolishi mumkin. Shuning uchun doim hushyor bo'lishimiz kerak. Ustozlarimizning bizga berib kelayotgan bilim va ko'nikmalariga tayanib, o'zimizni har tomonlama ko'rsatyapmiz. Qolaversa, amaliyotda qo'llab ko'rgan harakatlarimiz hech qachon yodimizdan ko'tarilmaydi. Kelgusida bilim yurtini a'lo baholarga tamomlab, orttirgan tajribamizni yurtimiz tinchligini saqlash va shaxsiy tarkibning jangovar shayligini oshirish yo'lida safarbar etamiz.

Mashg'ulot rahbarining so'zlariga ko'ra, ushbu amaliyotda kursantlar tabiiy va sun'iy to'siqlardan o'tishlari shart. Buning natijasida favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari oshadi. Sirdan qaralganda, biz uchun barchasi to'g'ri bajarilganek. Ammo katta-kichik kamchiliklarni topish hamda ularni bartaraf etishni mutaxassislariga qoldirganicha ortga qaytdik.

Yo'limizda yana T-72 tankidan kalibri 125 mm bo'lgan snaryadlarni nishonlarga qarata otayotgan kursantlarga ko'zim tushdi. Ularga qarar ekanman, xayolimdan qachonlardir bu yigitlarda ham dadasi olib bergan kichik tank o'yinchog'i bo'lgan bo'lsa ne ajab, degan o'y o'tdi.

**Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"**



Mulohaza

HARBIY XIZMATCHILARNING MA'NAVIY-MA'RIFIY SAVIYASINI OSHIRISH – ZAMON TALABI

Shu ma'noda jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin avj olayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan davrda mudofaa tizimida harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda ma'naviy, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash muhim masalalardir. Ayniqsa, bugungi urushlarning raqamli ravishda tus olayotgani, axborot maydonida kechayotgan "g'oyaviy tahdidlar" harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini oshirish zarurligini ko'rsatyapti. Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik esa harbiy xizmatchilarda bunday tahdidlarga bo'lgan o'ziga xos qurol, shu bilan birga ularning axloqiy holati, fidoyiligi va vatanparvarligi asosidir.

Jahonda o'zining zamonaviy va barqaror armiyasiga ega bo'lgan davlatlarda harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda ma'naviy, axloqiy-ruhiy holatiga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, AQSh armiyasida "Spiritual fitness" nomli maxsus dastur ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mashg'ulotlarda tayyorgarlikni o'taydigan harbiylarning qariyb 74 foizi jangovar sharoitda tezkor qaror qabul qilish hamda stress, qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatlari yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda milliy armiyamizda ham harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviasini oshirishga, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. 2018-yil 4-avgustda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan konsepsiyaning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir qator istiqbolli vazifalarni belgilab berdi.

Ushbu hujjat "Vatan – muqaddas, uni himoya

Ma'naviyat va ma'rifat sifatlarining uyg'unligi g'oyaviy qaramlikni bartaraf etadigan beqiyos kuch bo'lib, u insonga aqliy, ruhiy hamda jismoniy quvvat baxsh etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-ma'rifiy yuksalish esa kishilarni jaholat changalidan qutqaradi, buzuq va gunoh ishlardan qaytaradi, ezgu amallarni bajarishga undaydi.

qilish sharafli burch!" degan konseptual g'oyaga asoslangan bo'lib, butun mohiyati – milliy armiyamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, harbiy xizmatchilarning bilimi va ma'naviy saviasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlari va huquqiy bilimlarini mustahkamlash kabi muhim masalalarni qamrab oladi. Shu ma'noda harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviasini, intellektual salohiyatini qanday oshirish mumkin, degan o'rinni savol yuzaga keladi.

Buning yechimi sifatida aytish mumkinki, avvalo, harbiy qismlarda ma'naviy va ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini uzluksiz va tizimli ravishda olib borish kerak. Ma'naviyat soatlarini tashkil qilish, ilmiy hamda kitobxonlik tadbirlarini o'tkazish orqali ushbu dastlabki maqsadga erishish mumkin.

Ikkinchidan,

harbiy xizmatchilarning irodasini mustahkamlash, ruhiyatini chiniqtirish, turli salbiy axborot xurujlariga qarshi tura olishi uchun axloqiy-ruhiy tayyorgarligini tashkil etish zarur. Bunga esa aniq maqsadga qaratilgan psixologik treninglar o'tkazish, harbiy pedagogika va psixologiya usullaridan unumli foydalanish orqali erishish mumkin.

Uchinchidan, mamlakatimizda hamda jahonda harbiy-siyosiy sohada ro'y berayotgan muhim yangilik va xabarlarini muntazam yetkazib borish va shu orqali harbiy xizmatchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hamda huquqbuzarliklarga

toqatsizlik ruhini

shakllantirish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi suhbatlarini tashkil qilish ham ularning ma'naviy-ma'rifiy saviasini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Harbiy qismlarda ma'naviy yuksalish tadbirlari va madaniy hordiq chiqarish kunlarini tashkil etish ham harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligida muhim rol o'ynaydi. Misol sifatida, davra suhbatlari, uchrashuvlar, hujjatli film namoyishlari, teatr-konsert tomoshalari hamda ekskursiya va tashriflarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bularning barchasi harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviyatni, burchga sadoqatni, fidoyilik va vatanparvarlik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Aqliy, ruhiy hamda axloqiy barqaror muhitni yaratish nafaqat harbiy xizmatchining ma'nan yetukligi belgisi, balki harbiy jamoaning birdamligi, hamkorligining ham asosidir. Natijada ular birlashgan holda butun mamlakat xavfsizligining tayanchiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, jahonda yuz berayotgan harbiy-siyosiy jarayonlarning xarakteridan kelib chiqib, bugungi kunda harbiy xizmatchilar nafaqat jismoniy kuchga, balki ma'naviy va ruhiy yetuklikka ham ega bo'lishi zarur. Zero vatanparvarlik, sadoqat, fidoyilik, xizmatga mas'uliyat bilan yondashish – bularning barchasi ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik natijasi.

G'iyosxon SAIDA'ZAMOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi,
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi kursanti



Muloqot

“USTOZ-SHOGIRD” AN'ANASI UYG'UNLIGI

“O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan tizimda xizmat qilayotgan xodimlar, ayniqsa yosh mutaxassislar bilan ishlash, kasbiy mahoratini oshirish va ular o'rtasida korrupsiyaviy holatlar hamda boshqa nojo'ya xatti-harakatlarning oldini olish borasida muntazam ravishda amaliy chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Yosh xodimlar va ularning ota-onalari ishtirokida videokonferens-aloqa tarzida o'tkazilgan uchrashuv ham bu boradagi faoliyatning mantiqiy davomi bo'ldi.

Jarayonda harbiy prokuratura faxriylari va ko'p yillardan buyon tizimda xizmat qilib kelayotgan

ofitserlar tomonidan so'nggi yillarda prokuratura, shu jumladan harbiy prokuratura organlaridagi keng qamrovli islohotlar, xodimlar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasi borasida va faoliyatiga doir boshqa yangilik hamda o'zgarishlar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, yosh xodimlar kamolotida ota-onalar bilan yo'lga qo'yilgan doimiy ochiq hamkorlik, qolaversa, "Ustoz-shogird" an'analarning beqiyos o'rni va roli e'tirof etildi.


Shu asnodda ota-onalarning fikr va mulohazalari eshitildi.

So'ngra mehmonlar O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tarixi muzeyi va xizmat o'tash uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirildi.

Adliya polkovnigi Navro'z RAYIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi bo'lim harbiy prokurori

Matbuot minbari

HAQ SO'Z QUDRATI —



Haq so'z va haq fikrni yozish – jurnalistning bosh vazifasi hamda jasorati fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson qadr-qimmatini ulug'lash asos-negizi. O'n yildirki, Yangi O'zbekiston chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mohiyatan bular tub o'zgarish bo'lib, sur'atlarga ko'ra, jadal o'sish hisoblanadi. Miqyosi – tizimli va uzluksiz butun davlat va jamiyatni qamrab olmoqda. Yangilanishlarning muhim xossasi ularning o'zaro bog'liqligi. Ya'ni bir sohada o'zgarishlar boshqa sohalarga ham o'z mushtarak ta'sirini ko'rsatadi. Yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatidagi chuqur o'zgarishlar ta'sirida yuzaga keldi.

“Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak”, degan Shavkat Mirziyoyevning yangi g'oyaviy-mafkuraviy fikri hozir aytilsa-da, 7 yil oldingi nafas bor... Demak, uning 2016–2021-yillar davomida har bir qadami xalq tomonga tashlandi. Ko'plab chiqargan qarorlari xalqqa yengilliklar berdi. Yangilangan O'zbekiston miqyosidagi barcha rahbarlarning birinchi vazifasi ham xalq bilan muloqot qilish, odamlar roziligiga erishish ekani qat'iy belgilab qo'yildi.

Shu o'rinda Shavkat Miromonovichning 2017-yil 26-iyunda matbuot va OAV xodimlariga yo'llagan tabrigidagi mo'jiza – bashoratini keltiraman: “Men siz, muhtaram matbuot ahlining hayotimizni yanada erkin, obod va farovon etish uchun doimo fidoyilik ko'rsatib yashashingizni yaxshi bilaman va sizlarni shu yo'lda o'zimizning eng yaqin hamkorlarim va yordamchilarim deb hisoblayman”. Bundan-da ortiq ta'rif bormi, axir! Bu haqiqat 2025-yilning, istiqbolning shon-sharafiga aylanmoqda.

Sizga hozirgi 7 yillikda haq so'z qudratining atomdan kuchli ekaniga isbot?! Haq so'z qudrati puxta, ravon va jaydari tilda ifoda qilinib, TV va bosma nashrlarda katta imijga ega bo'lmoqda.

Jurnalist so'z yasash orqali voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Fuqarolik jamiyatining barpo bo'lishini o'ylantirayotgan, xavotirga solayotgan mavzularni yozadi. U yozish odob-axloqi hamda haqiqat uchun kurashadi, bundan keyin ham kurashaveradi. Oqibat natija ma'lum: Yangi O'zbekiston jamiyatini barpo qilish.

Jurnalist huquqi – haq so'z aytmoq

2023-yili 14-iyulda muhtaram Prezidentning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqidan iqtibos keltiraman: “Biz demokratiya va ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, konstruktiv muxolifat faoliyatini, so'z va matbuot erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini kafolatlaymiz”.

OAV rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, 20 ga yaqin uning huquqiy asoslari yaratildi. Jurnalist huquqlari: xususan jurnalistning shaxs daxlsizligi huquqi, sir saqlash huquqi, axborot izlash, olish huquqi va imkoniyatlari, jurnalist huquqlarining ijtimoiy ahamiyati, shuningdek jurnalistning kasb majburiyatlari va mas'uliyati, kasb faoliyatining kafolatlari – bu o'lmas g'oyalar hozir ham o'z kuch-qudratini yo'qotgan emas.

“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonunga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa NNT, fuqarolarning o'zini boshqarish organlari OAV fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Shuningdek, OAVlarining XV bobidagi 81-82-moddalarda OAV erkinligi, axborot izlash, olish, foydalanish, tarqatish huquqiy jihatdan kafolatlangan. U ishonchli bo'lishi – haq so'z aytishi jurnalistning asosiy huquqi.

Ayni paytda senzura yo'l qo'yilmaydi, OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi. Aslida so'zimiz rost, to'g'ri va haq bo'lishi uchun, ya'ni yangilanish, yangi O'zbekistonni barpo etish uchun ochiq va shaffof holda OAV va matbuot haqidagi huquqiy bilimlarni juda mukammal bo'lmasa-da (*jurnalist bundan mustasno*), yangilanish – yangi tandirdan endi chiqqan huquqlarni bilishimizdan boshlanadi.

Aholining huquqiy ongi va tafakkurini oshirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan faqat bayramoldi, saylovoldi kompaniyalardagina emas, balki doimiy ravishda birinchi darajali vazifa sifatida shug'ullanilsa,

natija ko'zga tashlanadi. Buning uchun mamlakatimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni yoritishda xolisona tanqiddan foydalanish lozim. Shu tariqa ommaning matbuotga e'tiborini ko'proq jalb qilish mumkin. Matbuot bilan doimiy tanishib borgan kishining esa fikri shakllanadi, rivojlanadi. O'z dunyoqarashiga ega kishilar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-huquqiy jarayonlarga befarq bo'lmaydi, gurkirab o'sayotgan hozirgi 7 yillik rejalarini bajarishda, ayniqsa jasoratli haq so'zni aytgan jurnalist oldingi saflarda bo'ladi. Bo'lishi shart ham.

Hayotimizda keng qamrovli va shiddatli yangilanish jarayoni yuz beryapti. Bu yangilanish har sohada va har bir narsada tobora ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, OAV hamda uning qaynoq jabhasi bo'lgan matbuot va TVda ham. Bu o'zgarish faqat matbuot nashrlari sonining behad ko'payganida emas, eng avvalo, OAVda erkin so'zga, fikrlar rang-barangiga e'tibor kuchayib borayotganida, haq so'zga intilishda o'zini namoyon etyapti.

Yangi O'zbekiston xalqaro siyosatda, iqtisodiyotda, ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishda o'z oydin yo'lini topibgina qolmay, dunyo OAV maydonida ham o'z mavqeyiga ega bo'lish sari odimlayapti. Keng qamrovli matbuot nashrlari, dovyurak va haq so'zli jurnalistlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy va siyosiy-huquqiy hayotiga ta'sir ko'rsata olayotgani, haq so'z qudratini namoyish etayotgani ayni muddaodir. O'tgan yili 27-iyun – Matbuot va OAV xodimlari bayrami munosabati bilan muhtaram Prezident jurnalistika sohasiga katta ishonch bildirdi: “Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to'rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda”.

Men misol tariqasida milliy matbuotimiz ravnaqi uchun o'rnak va namuna bo'ladigan gazetalar: “Xalq so'zi”, “Народное слово”, “Yangi O'zbekiston”, “Правда Востока”, “Ishonch”, “Доверие”, “Hurriyat”, “XXI asr”, “O'zbekiston ovozi”, “Milliy tiklanish”, “Adolat”, “Vatanparvar”, “Postda – На посту”, “Jamiyat”, “Ma'rifat” va “Darakchi” borligini ko'rsatishim mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev bundan 5 yil oldinroq “Yangi O'zbekiston” gazetasi jamoasiga oq yo'l tilab, Yangi O'zbekistonni barpo etishda xolis va haqqoniy hamda jamoatchilik fikrini

yoritish, muammo va kamchiliklar yechimini topish, tanqidiy tahliliy materiallar berishga, axborot makonida munosib o'rin olishiga ishonch bildirgandi.

“Yangi O'zbekiston” zamon nafasini chuqur his qilib, dolzarb voqea-mavzularni tezkor va chiroyli dizayn uslubida chop etmoqda. Yangi O'zbekiston o'z nomiga munosib nashrga aylandi. Mo'jiza, kashfiyot, eng yangi yangiliklar, xabarlar ko'zguna, mushtariylarning sevimli va o'qimishli gazetasi sari yo'l tutishida tahririyat jamoasi inson qadr-qimmatini va kapitalini xolis qudratli kuchga aylantira oldi.

Nazarimda “Yangi O'zbekiston” gazetasi har bir iqtidorli muxbir-jurnalisti davlat va jamiyat taraqqiyotining turli-tuman muammoli masalalarning asl mohiyatini ravon tilda mushtariylarga yetkazadi. Bunday holatdan har qanday inson quvonadi, o'ta muhim masalalar mohiyatini bilib oladi. Bunday gazeta-jurnallar Uchinchi Renessans uchun xizmat qiladigan Yangi O'zbekiston davlatining ochiq va shaffof hayotini aks ettiruvchi ko'zga hisoblanadi. Ularni yaratuvchi ijodkorlarimizning aql-u shamoyili, kapitali metindek mustahkam, oltindek tovlanib, yorqin kelajak uchun xizmatdan aslo charchamasin, ilohim!

Darvoqe, rost, dadil, erkin haq so'zli OAV bo'lmasa, o'sha yerda korrupsiya, to'rachilik, mahalliychilik, qonunbuzarlik va boshqa xavfli illatlar g'ovlaydi, hayotni buzadi, taraqqiyotga putur yetkazadi. Shu boisdan istiqbolga umid va ishonch bilan qaraydigan har qanday davlat va jamiyat OAVning haqiqiy demokratik asoslarda rivojlanishiga katta e'tibor beradi hamda zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Biroq ba'zi hollarda jurnalist ma'lumot olish uchun hamon yurtimizdagi ayrim yirik tashkilot va idoralarning to'siqlariga uchramoqda. Masalan, ma'muriy rahbar shaxsiy bandlegini ro'kach qilib, ularni qabul qilmaydi?! Idoralardagi tegishli kichik xodimlar esa “Boshliq ruxsat bersa, bizdan ma'lumot olasiz”, deydi. Bunday hollar tez-tez yuz berib turibdi. Aslida jamiyatni yanada ravnaq toptirish yo'lida eng kichik hodisalarga ham e'tibor berish esa katta muammolarni hal qilish, adolatli fuqarolik jamiyatini yaratish, albatta, matbuot ko'magida huquqiy demokratik xalqchil davlat – Yangi O'zbekistonni barpo etishda juda-juda asqatadi.



ATOMDAN KUCHLI

Erkin fikrlovchi jurnalist ehtiyoji, xohish-irodasi

Mening nazirimda har bir jarayon, har bir intilish, har bir marra va yangi motivatsiyalarni keltirib chiqaradi. Bu esa to'xtovsiz rivojlanish, albatta "yo'l xaritasi" ila amalga oshadi. Siyosiy yetakchining topqirligi va o'z o'rnida munosib tarzda milliy g'oyalarni berishlari biz uchun, qo'shni davlatlar uchun ham turtki bo'lmoqda. Vaholanki, Mustaqillikning 32 yilligi munosabati bilan muhtaram Shavkat Miromonovich ifoda qilgan nutqida: "Bugun rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish haqida gap borar ekan, buni so'z va matbuot erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun dunyoda jurnalistlar o'zlari va jamiyatni o'ylantirayotgan, xavotirga solayotgan mavzular haqida gapirish va yozish huquqi uchun, haqiqat uchun kurashganlar va bundan keyin ham kurashadilar.

Ammo ishonch bilan ayta olamanki, men erkin fikrli jurnalistlar tarafida bo'lganman va doimo shu pozitsiyada bo'laman. Ayni vaqtda axborot makonida haqqoniylik va xolislik bosh mezon bo'lishi kerak", degan gaplari ayni muddaodir.

Ochig'ini aytganda, gazetada bitilgan so'z kechagi kun hodisasiga aylanadi, lekin undagi so'zlar har bir shaxsning fikriga, ayniqsa fikrli odamga ta'sir ko'rsatadi. Fikr xilmaxilligidan fikr hamda nuqtayi nazar bahsida haqiqat tug'iladi. Buning to'g'riligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q. Kim nimani yoqtiradi, kim nimadan zavq-shavq oladi, bular ham har kimning dunyoqarashi va saviyasi hamda salohiyati va xohishiga havola. Tabiiy, shundan kelib chiqib bo'zchi bilganini to'qiydi? Lekin jamiyatda shunday davrlar kechadiki, bilganidan kelib chiqib aytar so'zi: **Vatan va millat manfaatiga xizmat qilishi zaruriyatga aylanadi.**

Prezidentimiz bejiz "Erkin fikrlovchi jurnalist haqida gap borar ekan, buni so'z va matbuot erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi", deb ta'kidlamagan. Olaylik, "O'zbekona matbuot" degan maqola bundan 20 yillar oldin paydo bo'ldi (muallif iqtidorli jurnalist Umid Bekmuhammad). "O'zbek matbuoti", "O'zbekiston matbuoti". Biz bu so'zlarni eshitganda o'zbek tilida yoki O'zbekiston Respublikasida chiqadigan gazeta va jurnallarni tushunamiz. Biroq o'ylab ko'rganmisiz? Men bu savolga o'zbek matbuoti

o'zbekona bo'lishi kerak, degan bo'lardim. Ya'ni O'zbekistonda chiqadigan o'zbek matbuoti xuddi o'zbekday bo'lishi kerak. Aniqrog'i, o'zbek matbuoti o'zida milliy va jangovar mafkuraviy ruhiyatni, etnopsixologiyasini mujassam etmog'i lozim. O'zbeklar o'zi yashayotgan makon tabiatidan nurlangan, kamol topib borayotgan xalqdir. Dunyoda o'zbeklardek bag'rikeng, xushfe'l, sodd, shuningdek andishali xalq bo'lmasa kerak! Menimcha, xalqimizning ana shu xislatlari o'zbek matbuoti qiyofasi bo'lishi lozim deb o'ylayman.

Globalashuv davrida global madaniyat o'zining tashqi "yaltir-yultur"lari, "bir marta beriladigan hayotda yashab qolish kerakligi"ga kimlaridir ishontira olishi, yengilligi, osonligi bilan millionlab qalblarni yuhodek yutib yubormoqda. Mana shu davrda ona O'zbekistonimizni sharaf bilan asrab-avaylash, o'zbek xalqining o'zligini bayroq misoli yuksaltirish, hayotning hamma jabhalarida jism va qalb salomatligi hamda jamiyatni ezgu maqsadlar yo'lida jipslashtirib, unga jismoniy va ma'naviy kuch-quvvat ato etadigan o'zaro mehr-oqibat, saxovat, bag'rikenglik tuyg'ularini, oilalarda haqiqiy barkamol avlod ulg'aytiruvchi sabr-u iroda, halollik, mehnatsevarlik, kattaga hurmat-u kichikka izzat fazilatlarini bardavom-u barqaror etadigan **real o'zbekona hayot tarzining in'ikosi bo'lgan axborotlar o'zbek milliy axborot kontentini tashkil etadi.** Demak, kontent yaratish har qanday jurnalist, qalamkash, blogerning o'z-o'zini ifoda etishi uchun nutq, yozuv yoki turli xil san'atlari kabi vositalar yordamida axborot mahsuloti ijod qilishidir. Bu qoida dunyodagi barcha OAV xodimlari uchun birdek tushunarli va birdek mezondir.

O'zbekona, ya'ni xalqchil matbuot mustaqillik mevasi, o'zbekligimiz, o'zligimiz ko'zgusi emasmi?! Shu bois ham muhtaram Shavkat Miromonovich: "...Biz jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkoralik, erkinlik muhitini yaratyapmiz va bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz, so'z va ijod erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish masalasi bundan keyin ham doimo

e'tiborimiz markazida bo'ladi", deganlari ayni muddao bo'ldi. Darhaqiqat, sohibqiron Amir Temurning: "Tafakkur fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvayi hofizasi kuchli inson har qanday mushkulu mushkulotni oson qilish yo'lini topa oladi", degan g'oyasi o'zbek jurnalistlariga juda mos.

Agar gazeta-jurnal siyosat maydoni va vositasi bo'lsa, jurnalistika siyosat bilan

shug'ullanish demakdir. Siyosat yangi g'oyaviy fikrdan boshlanadi, davom etadi. Fikrdan fikrsizlik chekinadi. Fikrga fikr peshvoz chiqadi. Fikr – harakatlar va siyosat. Bugungi o'zbek jurnalistikasining suyagi – Vatan, libosi – fikr, tabiati – mustaqillik. Milliy jurnalistikamizning boshqa ko'pgina davlatlar jurnalistikasidan afzalligi ham mana shunda?! U huquqiy poydevorga ega.

Jahon matbuoti yozadi...

"Dunyo" axborot agentligi – O'zbekistonning xorijdagi matbuot ko'zgusi. Osiyo jurnalistlari assotsiatsiyasi (OJA) **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni "2018-yil odami"**, deb e'lon qildi. Mamlakatimiz rahbari siyosiy yo'nalish bo'yicha g'olib, deb e'tirof etildi. Janubiy Koreyaning "The Korea Times" nashriga asoslanildi. Jurnalda qayd etilishicha, Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil dekabrda O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishganidan to hozirgi vaqtgacha (2018-y.) inson huquqlarini ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, ochiq pragmatik siyosat yuritish, shu jumladan siyosiy mahbuslarni ozod etishda rekord yo'l tanladi. U qo'shni davlatlar bilan faol hamkorlik aloqalarini o'rnatgan holda, Markaziy Osiyoda eng ilg'or va topqir siyosatchi sifatida tinchlik-totuvlikni asrashga katta hissa qo'shdi va qo'shmoqda.

Global investorlar, ishbilarmonlar, siyosatchilar va ekspert jamoatchiligiga mo'ljallangan "BRICS Business Magazine" jurnalida "Karvon bormoqda" maqolasi asosan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatni keng modernizatsiya yo'liga olib chiqish maqsadida e'lon qilingan demokratik islohotlarga bag'ishlandi. Shavkat Mirziyoyev ilk Prezidentlik faoliyati boshidan hukumat kun tartibiga liberal islohotlarni qaytargani, ilgari surilgan o'zgarishlar O'zbekiston hayotining barcha sohasiga daxldor bo'lishi ta'kidlandi. Ular ijtimoiy hayot, hokimiyat tuzilmasi va mamlakat iqtisodiyotini yanada moslashuvchan, zamonaviy hamda samarali bo'lishi, ayniqsa Qurolli Kuchlar, shuningdek huquq-tartibot tuzilmalari faoliyatiga ham taalluqli bo'ldi.

O'zbekistonda nufuzli siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-huquqiy jurnallar nashr etiladi. Lekin ular sahifalarida xorij davlatlari rahbarlari, hech bo'lmaganda biror yirik biznesmenlarning chiqishlarini kuzatmadik. Bosh muharrirlarning xorij safariga sarmoyasi bo'lmasa kerak? Yoxud yurtimizda xalqaro maqomga ega yirik jurnalning o'zi bormi?! Keyingi yillar ochig'i 3-4 yilda Yangi O'zbekistonda olamshumul voqealar sodir bo'ldi. Bu haqda jahon matbuoti yanada aniq-tiniq holda yozmoqda. Bu quvonarli hol. Ayni

paytda o'z gazetamiz, jurnalimizda jahon materiallari asosida tahliliy maqolalar chop etish davri keldi. O'zbekiston Jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti bu yangi g'oyalar, yangi jurnalistika yo'nalishiga jiddiy tarzda kirishgan.


Joriy yil OAV va matbuotchilar uchun jiddiy yilga aylandi. Chunonchi, AQShning mashhur "Forbes" jurnalida taniqli jurnalist va tahlilchi Kennet Rapozaning "O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev islohotlar uchun ko'proq vaqt ajratmoqda" sarlavhali maqolasi chop etildi. "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 9-iyul kuni bo'lib o'tgan muddatidan ilgari mamlakat

Prezidenti saylovidagi hal qiluvchi g'alabasi davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishi va iqtisodiy yangilanishlarni kuchaytirishdan darak bermoqda, deb yozdi tahlilchi ekspert. U 2016-yilda birinchi marta Prezidentlikka

saylanganidan beri Amerika Qo'shma Shtatlari bilan yaqin munosabatlarni rivojlantirishda va savdo sheriklarini diversifikatsiya qilish uchun harakat qilmoqda". Yaxshi bilamiz, ikkinchi yildirki "Vatan" xalqaro jurnali o'z jamolini Vatanga, xalqqa munosib tarzda ko'rsatmoqda va chiroyli puxta materiallar e'lon qilinmoqda. Jurnal o'z oydin yo'lini topa boshladi, Yangi O'zbekistonning xalqaro ko'zgusiga aylanib bormoqda. Buni jurnaldagi xalqaro maqomdagi maqolalar sharhidan ham bilsa bo'ladi. Ayni paytda Shavkat Miromonovich xorijlik elchilarga ulkan vazifalar yuklagan holda, ikki yurt o'rtasidagi teng savdo-sotiq iqtisodiy, o'zaro do'stlik aloqalariga katta e'tibor qaratmoqda. Ming bora qayd qilish lozimki, Yangi O'zbekistonni barpo etish 7 yillik strategiyasi, albatta, xorijlik davlatlar hamkorligi, hamjihatligi va do'stlik-birodarlik rishtalarini ko'plab sohalarda oqilona rivojlantirishga bog'liq. Bunda esa matbuot, OAV xizmati tinmay davom etaveradi. O'zA, "Dunyo" AA o'ta muhim jihatlarni belgilab bermoqda.

Umuman, hozirgi tub o'zgarishlar davrida xalqimizning ulkan "Taraqiyotga erishishi uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi", degan Prezidentning yangi mafkuraviy g'oyalarni anglashga chorlaydigan jurnalistning qudratli so'zi! Mana sizga haq so'z – haqiqat, har qanday atomni chetga surib, parchalab tashlaydi.

Karim NORMATOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi professori,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi



Tarixiy haqiqat



“BUYUK MO‘G‘ULLAR”MI

“O‘zbekiston Prezidenti xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishga juda katta hissa qo‘shmoqda, – dedi senator Rikardo Nenchini. – Albatta, biz uchun Sharq, xususan O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk shaxslar hayot va faoliyatini o‘rganish juda muhim. Buyuk sarkarda Boburning ushbu asari besh asr oldingi Sharq xalqlari hayoti, tarixi va madaniyatini o‘rganishda nihoyatda qimmatli manba hisoblanadi”.

“Kitob Italiya ilmiy va madaniy jamoatchiligini buyuk shoir va qomusiy olimning bebaho merosi, o‘zbek davlatchiligining uch ming yillik tarixi bilan tanishtiradi, – dedi nashriyot rahbari Sandro Teti. – Asarning italyan tilida nashr etish jarayoniga malakali tarjimonlar, muharrirlar va dizaynerlar guruhi jalb etildi”.

KEZI KELGANDA...

So‘z navbati menga berilganda, ushbu nashrning ikki xalq o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarda tutgan o‘rni haqida so‘z yuritarkanman, yana bir masalaga alohida to‘xtalishga to‘g‘ri keldi.

Albatta, yevropalik olimlar va tadqiqotchilarning O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga, Temuriylar va Boburiylar merosiga hurmati va e‘tibori bizni quvontiradi. Ammo afsuski, bir necha asrdan beri Boburiylarga nisbatan “Buyuk mo‘g‘ullar” atamasi asossiz tarzda keng qo‘llanib kelinmoqda. Aslida bu sulola vakillari o‘zlarini hamisha Amir Temur avlodidan deb bilishgan. Shu bois nazarimizda “Buyuk mo‘g‘ullar” atamasini “Buyuk temuriylar” bilan almashtiradigan vaqt yetib keldi.

“Men bu fikrni har tomonlama qo‘llab-quvvatlayman, – dedi tadbirda ishtirok etgan professor Franko Kardini. – Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaligi Amir Temur va Temuriylarning kelib chiqishi, jahon tamaddunidagi o‘rni haqida haqqoniy tushuncha hosil qilishimizga asos bo‘ladi. Amir Temur tufayli Yevropa xalqlari yarim asr davomida Usmoniylar qaramligidan xalos bo‘ldi. Bu esa Yevropadagi Uyg‘onish davriga katta turtki berdi. Amir Temur avlodidan bo‘lgan Bobur va uning Hindistonda hukmronlik qilgan avlodlarini “Buyuk temuriylar” nomi bilan atash tarixiy haqiqatning tiklanishi bo‘lur edi”.

VIKTORIYA VA ALBERT MUZEYIDA HAM SHU XATO

Bundan ikki oycha ilgari O‘zbekiston madaniy merosiga bag‘ishlangan media-ivent o‘tkazish maqsadida Buyuk Britaniyaga borganimizda ham shunday holning guvohi bo‘ldik. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi delegatsiyasi Londondagi Viktoriya va Albert muzeyidagi nodir eksponatlar bilan tanishdi.

1852-yilda shahzoda Albert tomonidan asos solingan bu muzey o‘zining maydoni, serqatnovligi va eksponatlarga boyligi jihatidan dunyoning eng yirik muzeylari qatoridan joy olgan. O‘sha kunlarda muzeyda “Boburiylar davri san‘ati” mavzusida ko‘rgazma bo‘lib o‘tayotgan ekan. Ko‘rgazmada Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari, Akbar, Jahongir Mirzo, Shohjahon, Avrangzeb singari hukmdorlar davriga oid nodir eksponatlar namoyishga qo‘yilgan. Ular orasida “Boburnoma”, “Akbarнома” singari tarixiy asarlar, maxsus muraqqa albomlar, ulardan o‘rin olgan miniatyuralarning asl nusxalari borligi diqqatga sazovor. Shuningdek, ko‘rgazmada Boburiylar davrida ishlatilgan jang qurollari, zargarlik buyumlari, shohona hadyalar, tarixiy hujjatlar, xalq amaliy san‘atining betakror namunalari ko‘rish mumkin.

Ko‘rgazma yuqori saviyada tashkil qilingan. Tomoshabinlarning ham qadami uzilmayapti. Faqat, birgina narsa dilni xira qilardi – ko‘rgazmaning nomi! “Buyuk mo‘g‘ullar san‘ati”.

Biz, albatta, ko‘rgazma tashkilotchilari bilan uchrashib, bu atamaning xato ekani, Boburiylarning bugungi mo‘g‘ullar va Mo‘g‘ulistonga aloqasi yo‘qligini tushuntirdik. Ular bu masalani har jihatdan o‘rganib chiqishga va‘da berdi.

Shu haqda tadbirlarimizda ishtirok etish uchun atayin Parijdan kelgan mashhur olim, “Temuriylar assotsiatsiyasi prezidenti Frederik Bressandga aytgandim, bu fikrni to‘la-to‘kis qo‘llab-quvvatladi.

“Men Temuriylarga oid tarixiy manbalar, yevropalik olimlarning ko‘plab tadqiqotlari bilan tanishman, – degan edi Bressand xonim. – Boburiylar aslida rasman Temuriylar sulolasining davomchilari bo‘lsa-da, ularning hukmronligi dunyo tarixchilari tomonidan alohida davr sifatida o‘rganiladi. Nima sababdan bu sulolaning “Buyuk mo‘g‘ullar” deb nomlanishini ochig‘i men ham tushunolmayman”.

BOBURIYLAR KIM EDI?

Tarixdan yaxshi ma‘lumki, Movarounnahr va Xurosondagi yurishlarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Zahiriddin Muhammad Bobur 1525-yilda Hindistonga yurish qiladi. Shu taxlit Hindistonning katta qismida yangi sulola – Boburiylar hukmronligi o‘rnatiladi.

Bu sulola mamlakatni to inglizlar bosqiniga qadar – 1858-yilgacha boshqargan. Boburiylar Hindistonda mahalliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analarni hurmat qilish barobarida Hindistonga yangi madaniyatni olib kirdi. Boburiylar davri tasviriy san‘atida mahalliy va Temuriylar an‘analari uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi. Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shohjahon, Avrangzeb singari Boburiylar ham mamlakatda ilm-fan, san‘at va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgani uchun buyuk hukmdorlar deyiladi.

BOBURIYLAR SULOLASI davrida ilm-fanga katta e‘tibor qaratilgan. Ularning davrida ta‘lim muassasalari barpo etilgan, turli fanlarning rivoji uchun sharoitlar yaratilgan. Boburiylar me‘morchilik va qurilish texnikasini yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Hindistonda juda ko‘p mashhur bino va inshootlar qurilgan.

XVI–XVIII asrlar mobaynida Boburiylar tomonidan bunyod etilgan qator monumental inshootlar, asosan Movarounnahr va Hindiston me‘morlik uslublarining uyg‘unlashuvi – yangi “hind-musulmon uslubi” bo‘yicha qurilgan. Qurilishga Movarounnahr, Hindiston, Eron va Rum me‘morlari boshchilik qilgan.

Jumladan, Toj Mahal – Shohjahonning rafiqasi Mumtoz Mahalning xotirasiga qurilgan dunyoga mashhur bino. Bu inshoot me‘morchilikning eng yuksak namunasi hisoblanadi. Hindistonning Dehli shahrida joylashgan Qizil qal‘a sulolaning kuch-qudratini namoyish qiluvchi ramziy bino sifatida tanilgan.

Akbar, Shohjahon va Jahongir davrlarida she‘riyat va tarixiy asarlar yaratishning o‘ziga xos an‘anasi vujudga kelgan. Ularning davrida olimlar va yozuvchilarga homiylik ko‘rsatilib, ilmiy ishlar qo‘llab-quvvatlangan. Musavvirlik, haykaltaroshlik, miniatyuralar yasash san‘ati yuqori darajada rivojlangan. Xususan, hind miniatyura san‘ati Boburiylar hukmronligida o‘zining eng yuqori nuqtasiga yetgan.

Keyingi yillarda boy va ulug‘vor madaniy merosimizni asrab-avaylash, o‘rganish va uni ommalashtirish borasidagi ishlar muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

2017-yilning 23-iyun kuni Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi bu masalada qo‘yilgan eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

SEZAR YURTINI ZABT ETGAN BOBUR

Ayni paytda markaz faoliyatini takomillashtirish, buyuk allomalarimiz yaratib qoldirgan ulkan merosni keng miqyosda targ‘ib etish maqsadida dunyoning turli mamlakatlari bo‘ylab xizmat safarlari, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilinmoqda.

Islom sivilizatsiyasi markazi vakillaridan iborat O‘zbekiston delegatsiyasining Italiyaga xizmat safari maqsadi ham ikki davlat o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va tarixiy merosni o‘rganishga hissa qo‘shishga qaratildi.

Yevropada buyuk temuriyoda hukmdor, Hindistondagi Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga qiziqish ham ancha oldin boshlangan. Ma‘lumki, sohibqiron Amir Temurning beshinchi avlodi bo‘lgan Bobur Mirzo hassos shoir, qomusiy olim, atoqli davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida takrorlanmas hamda boy ijodiy-ilmiy meros qoldirgan.

XVIII asr boshlaridayoq “Boburnoma” Yevropa tillariga tarjima qilina boshlangan. Yaqinda Italiyaning “Sandro Teti Editore” nashriyot uyi “Boburnoma”ni italyan tilida

chop etdi. Asarni atoqli italyan olimi, turkolog Federiko Pastore tarjima qilgan.

Ushbu nashr Boburiylar davriga oid 96 ta miniatyura bilan bezatilgan. Ko‘p nusxada chop etilgan “Boburnoma” Italiya va Yevropaning ko‘plab kitob markazlariga taqdim qilingan.

BUYUK ASARNING MUNOSIB E‘TIROFI

Florensiya Italiyaning eng qadimiy va go‘zal shaharlaridan biri. Bu shahar o‘zining uzoq tarixi, buyuk shoir va bastakorlari, roman uslubida qurilgan me‘moriy yodgorliklari bilan dovruc qozongan. G‘arb me‘morchiligining durdonasi sanalgan “Palasso Strossi” saroyi 1489–1539-yillarda Florensiyaning eng mohir me‘mor va ustalari tomonidan bunyod etilgan. Sharq adabiyotining buyuk shoh asari bo‘lgan “Boburnoma” ham Mirzo Boburning umri davomida 1494–1530-yillar davomida yozilgan. Bu ikki bebaho asar deyarli bir paytda Yevrosiyo qit‘asining ikki qutbida yaratilgani ham bejiz bo‘lmasa kerak. Zotan, aynan shu yerda “Boburnoma”ning italyan tilidagi nashri taqdimoti o‘tkazildi.

“BOBURNOMA” asarining italyan tilidagi nashri taqdimotiga bag‘ishlangan tadbirlar Rimda ham davom etdi. Italiyadagi Sharqshunoslik institutiga mashhur italyan sharqshunosi Karlo Alfonso Nallino (1876–1938) tomonidan Rim shahrida 1921-yilda asos solingan. Institut asosan, Sharq xalqlari tarixi, madaniyati va qo‘lyozmalarini tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Tadbirda yana bir bor “Boburnoma”ning nashr etilishi ikki davlat o‘rtasidagi adabiy va ma‘rifiy aloqalarda munosib o‘rin tutishi alohida ta‘kidlandi.

YOXUD “BUYUK TEMURIYLAR”?

AJDODLAR XOTIRASIGA SADOQAT

Boburiylar har doim o'z an'alariga, madaniy merosga, ona tillariga sodiq qolishgan. Manbalarga ko'ra, boburiy hukmdor har doim eng ishonchli mulozimlar va oila a'zolari davrasida yig'ilishlarni turkiy, eski o'zbek tilida olib borishgan. O'zbek tilining turli lug'atlari yaratilgan.

Boburiylar davrida hind, fors tillari bilan birga turkiy til va adabiyot ham jadal rivojlangan. Bobur, Humoyun, Komron singari sulola vakillari turkiy tilda devonlar yaratishgan, qator asarlar bitishgan.

Shohjahon saroyida turkiy mushoiralar o'tkazilgan, ularda Movarounnahr va Xurosondan mashhur shoirlar taklif etilgan. Turkiy tildagi asarlar fors va hind tillariga tarjima qilingan. Avrangzeb o'z davrida ko'chirilgan turkiy tildagi “Boburnoma” qo'lyozmasini shaxsan o'z qo'li bilan tahrir qilgan. Ular o'z saroylarida Movarounnahr va Xurosondan olimlar, shoirlar, xattot va musavvirlarni chorlashgan.

Amir Temur davlatchiligining o'ziga xos qomusi hisoblangan “Temur tuzuklari” asari ham aynan Boburiylar davrida topilgan va tarjima qilinib, qayta-qayta ko'chirilgan.

Bu davrda ko'plab Sharq adabiyoti durdonalari kitobat qilingan. Alisher Navoiyning qator asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnomasi” fors va hind tillariga tarjima qilingan. Juda ko'p temuriy hukmdorlar, ilm-fan va madaniyat namoyandalarining miniatyuralari ishlangan.

Hind miniatyura maktabi namunalarini orasida har ikki hukmdor bir davrada tasvirlangan suratlar ko'p uchraydi. Bu, albatta, Boburiylar saltanati vakillarining o'z nasl-nasabiga bo'lgan yuksak e'tiborini ko'rsatadi.

AMIR TEMUR va Boburning bizgacha yetib kelgan ko'pgina tasvirlari hind rassomlari ijodiga mansub. Boburiy hukmdorlar haqli ravishda ulug' ajdodlari bo'lgan Amir Temur va Bobur siyomosiga va merosiga buyuk ehtirom bilan qaragan.

Bunday suratlardan yana biri hindistonlik musavvir Muhammad Afzal Abu Faqirullohxon ijodiga mansub bo'lib, u ayni damda Rampur kutubxonasida saqlanadi. 1712–1713-yillar orasida chizilgan bu suratda sulolaning asoschisi Amir Temur o'zining 12 nafar avlodi qurshovida tasvirlangan.

Suratda sohibqironning chap tomonida Mironshoh, Abu Said mirzo, Bobur, Akbar, Shohjahon, Bahodirshoh, o'ng tomonda esa Muhammad Sulton, Umarshayx mirzo, Humoyun, Jahongir, Olamgir, Jahondorshohni ko'rish mumkin. Demak, Bobur ham, uning avlodlari doim turkiy ildizlari, Amir Temur avlodi ekani bilan faxrlanishgan.

TARIXIY HAQIQAT QAROR TOPSA...

Tarix sahnasida 350-yil hukmronlik qilgan Boburiylar saltanati dunyo olimlari tomonidan 100 yillardan beri tadqiq etib kelinadi. Ammo G'arb ilmiy hamjamiyati bu sulolaga nisbatan “g'alati mashhur” sifatida “Buyuk mo'g'ullar imperiyasi” atamasini qo'llab keladi. Xo'sh, bu atama qanchalik to'g'ri?

To'g'ri, “Buyuk mo'g'ullar” atamasini haqiqatan mutlaqo yiroq deb bo'lmaydi. Chunki genetik jihatdan turk va mo'g'ul xalqlarining ildizlari ming yillar osha yagona nuqtada tutashadi. Ammo asrlar davomida bu ikki xalq farqli madaniyat, e'tiqod va qarashlar ta'sirida alohida rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan.

Mirzo Ulug'bekning ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon mo'g'ul tilidan boshqa tilni bilmasdi. Eronda hukmronlik qilgan

Elxoniy davlati ham ko'pgina rasmiy hujjatlarni turkiy emas, mo'g'ul tilida yuritgan. Chingizxon bosqinidan so'ng uning avlodlari islom dini va turkiy madaniyatini qabul qilishgan. Yuz yillar ichida mahalliy muhit ta'sirida Markaziy Osiyo va Oltin O'rdada hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar to'liq turkiylashib ketishgan.

Bobur ota tomonidan Temuriylar, ona tomonidan turkiylashgan Chingiziylar avlodidan edi. Bobur o'z asarlarida hech qachon o'zini mo'g'ul deb atamagan, aksincha mo'g'ullarni madaniyatdan yiroq sahroyi elat sifatida zikr etadi.

FAQATGINA, Boburning chingiziylarga ona tarafdan qarindoshligi, shu bilan birga Bobur qo'shinlari safida mo'g'ul askarlari va amirlari ko'pligi sabab Hindistonda mahalliy aholi tomonidan harbiy va musulmon elitaga nisbatan “mug'al” (*mongol yoki mo'g'ul emas*) atamasi qo'llangan. Keyinchalik yevropalik olimlar ana shu xato nuqtayi nazar sabab bu saltanatga nisbatan “Buyuk mo'g'ullar imperiyasi” ifodasini qo'llay boshlashgan.

Holbuki, Bobur ham, uning avlodlari ham mo'g'ul tilida gapirishmagan. Ularning hukmronligi davrida davlat tili turkiy (*eski o'zbek*) va fors tillari edi.

Bobur o'zini hamisha turk (*turkiy*) ekani bilan faxrlangan. Jumladan, 1525-yili Hindistondagi Biyona viloyati amiri, eroniy naslli Nizomxoniga bitgan mana bu forsiy she'ri ham uning qanchalik qat'iyat va iqtidor egasi ekanini ko'rsatadi:

Bo turk siteza makun, ey miri Biyona,
Cholokiyu mardonagil turk ayonast,
Gar zud nayoiyu nasihat nakuni go'sh,
Onjo ki ayonast chi hojat ba bayonast?
(*Ey Biyonaning amiri, sen turk*

bilan o'ynashma, uning kuch-qudrati va mavdligi hammaga ma'lum. Agar tezda kelib, nasihatimizni qulog'ingga ilmasang, hammaga ayon bo'lgan narsani senga bayon qilib o'tirmaymiz).

Garchi rasmiy hujjatlar, farmonlar, xalqaro yozishmalar fors tilida olib borilsada, Boburiylar vakillari turkiy tili hech qachon unutishmagan. Aksincha, saroylarda maxfiy, xos majlislar, xonadon vakillarining o'zaro muloqotlari turkiy tilda olib borilgani manbalarda o'z tasdig'ini topgan.

JAHON OLIMLARI NIMA DEYDI?

O'tgan yilning oktabr oyida Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi tashabbusi bilan o'tkazilgan “Sharq renessanslari fenomeni: saltanatlar, dinlar, shaxslar va tamaddunlar” mavzusidagi xalqaro madaniy meros haftaligida germaniyalik tadqiqotchi, Berlin milliy kutubxonasi mas'ul xodimi Oysiyimo Mirsulton yana bir muhim topilma haqida ma'lumot berdi.

Olimaning aytishicha, Berlin kutubxonasida Boburiylar hukmdori, Buyuk Akbarning o'g'li Jahongir (1569–1627) paytida 1608–1618-yillar orasida yaratilgan muraqqa albomda Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mavlaviy singari shoirlarning turkiy she'rlari o'rin olgan. Shu paytga qadar Berlin kutubxonasida bu qo'lyozmani tadqiq etgan nemis tadqiqotchilar arab alifbosidagi ushbu baytlarning o'zbek tilida ekanini bilmaganlar va uni hindiy (*urdu*) tildagi parchalar deb hisoblashgan. Yaqinda Oysiyimo bu she'rlarning turkiy tilda bitilganini aniqladi.

AYNI PAYTDA Berlin kutubxonasida bu qo'lyozmaning faqat 25 ta sahifasi saqlanadi. Mazkur qo'lyozma dastlab 120 sahifadan iborat bo'lgan va unda 44 ta miniatyura ham kiritilgan. Albom sahifalari hozirgi kunda dunyoning turli hududlariga tarqalib ketgan.

Miniatyuralarda Sharq va G'arb tasviriy san'atiga xos xususiyatlar



ko'zga yaqqol tashlanadi. Turkiy tildagi she'rlar juda chiroqli, nasta'liq xatida, xatosiz ko'chirilgan. Muraqqada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o'nlab she'rlari o'rin olgan.

Ammo shu namunalarining o'ziyoq Boburiylar Hindistonda hukmronlik qilgan bo'lsa-da, ularning o'z tarixi, madaniyati, ma'naviy merosiga sodiq qolgani, o'z tili va adabiyotini unutmagani, ularning rivojiga yetarlicha e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

“Men uzoq yillardan beri Boburiylar merosi bilan shug'ullanib kelaman, – degan edi Pokiston Islom Respublikasining Panjob universiteti professori Ruxshona Iftixor Samarqandda 2024-yil avgustda o'tkazilgan xalqaro kongress paytida. – Nima uchun Amir Temur avlodiga mansub bo'lgan Boburiylarni biz mo'g'ullar deb atashimiz kerak? Mo'g'uliston umuman boshqa hududda joylashgan va bu xalqning tarixi, turmush tarzi va madaniyati Boburiylardan tamoman farq qiladi. Men bu sulolani “Buyuk temuriylar” deb atash tarafdoriman”.

ARTUR TOINBI TAN OLGAN HAQIQAT

Britaniyalik mashhur tarixchi va sotsiolog Artur Toinbi ham o'zining “Tarixni anglash” kitobida ham Boburiylarning jahon davlatchiligida tutgan o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Xususan, Boburiylar davrida hind zaminida universal davlat barpo etilganidan keyin ushbu chegaralar mustahkamlanganini alohida ta'kidlaydi. “Ular taraqqiyot bobida eng cho'qqiga chiqqan davrlarda Amudaryo havzasidagi o'zlar kelib chiqqan o'zbek davlatlarining bir qismini o'z mulklariga qo'shib olgan edilar”, deydi Toinbi o'z asarida.

Ushbu kitobdan olingan mana bu parchalar ham mavzuga yanada oydinlik kiritadi:

“...Albatta, Dehli ularning ham birinchi poytaxti emasdi. Lekin Boburiylarning

birinchi poytaxti Agra shahri ham mamlakat markazida joylashgandi”.

“...Britaniya imperiyasi ma'murlari, o'z navbatida, Boburiylar yo'lini tutishdi. Bundan tashqari, hind savdogarlariga mamlakat iqtisodiy hayotida ishtirok etish uchun imkoniyat yaratishdi”.

E'TIBOR QILYAPSIZMI, Toinbi bu sulolaga nisbatan “Buyuk mo'g'ullar” emas, asosan “Boburiylar” atamasini qo'llagan va ularni o'zbek hukmdorlari sifatida e'tirof etgan. Bunday fikrlarni amerikalik tarixchi olim Frederik Starr “Markaziy Osiyoning kashf etilishi”, “Yo'qolgan tamaddun izidan” singari asarlarida ham bildirib o'tadi.

XULOSA O'RNIDA...

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda asos solgan davlatni “Buyuk mo'g'ullar” deb atash tarixiy haqiqatning buzilishidan boshqa narsa emas. Hatto ularga nisbatan “Boburiylar” atamasi bu haqiqatni to'la ochib berolmaydi. Zotan, Hindiston uch yarim asr hukm surgan bu xonadon sulolaning asoschisi sifatida Boburni emas, Amir Temurni ko'rishgan.

Dunyo tarixda bir qator hukmdorlarga nisbatan buyuk atamasi qo'llanilgan. Buyuk Kir, Buyuk Iskandar, Buyuk Karl, Buyuk Pyotr... Ular qatorida Buyuk Amir Temur atamasini keng istilohda joriy etish, uning avlodlarini “Buyuk temuriylar” deb atashni, jahon ilmiy hamjamiyati orasida targ'ib etishni vaqti keldi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir”. Tarixiy haqiqatni tiklash, buyuk ajdodlarimiz nomi va shaxsiyatiga munosib ehtirom ko'rsatish, ularni o'z nomi bilan nomlash ham bizning vorislik burchimiz sanaladi.

Firdavs ABDUXOLIQOV,
O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi
markazi direktori

“Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanloviga

Xo‘jayev

KIM BO‘LGAN?

– Sen orzu nimaligini bilasanmi, Misha? Yurak-yuragingning qa’riga kirib borgan, tiriklikning ma’no-mazmuniga aylangan orzu nimaligini?!

– Xo‘sh, u qanday orzu ekan hayotingdan ham qimmat turadigan? – Yurtini, elni ozod ko‘rmoq orzusi. Erkin yashash orzusi...”

Ushbu dialog “Sharq yulduzi” jurnalining 2020-yildagi 11-sonida e’lon qilingan yozuvchi va dramaturg Abduqayum Yo‘ldoshning “Jadid” qissasidan olingan iqtibos.

Mezon shamollari tobora yaqin kelganini his qilar, avgustni qarshilar ekanmiz, Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni yaqinlashganini eslaymiz. Shuning barobarida bizdan bir qancha uzoqlashib borayotgan ma’rifatparvar bobokalonlarimizni esga olamiz. Ammo jadid Ubaydulla Xo‘jayev bizdan ancha yiroqlagandek, go‘yo.

XX asr boshida Markaziy Osiyoda Uchinchi Uyg‘onishga asos sola boshlagan jadidlar qalbini istiqloq orzusi chulg‘ab olgandi. Ular yurtini, elni ozod ko‘rmoqni, erkin yashashni orzu qildi. Ular bu orzuga yo‘l ilm va ma’rifatda ekanini tushunib yetdi va inchunin, millat bolalarini xat-savodli qilish uchun usuli savtiya – yangi usul maktablarini ochdi; zarar ko‘rsalar-da, taqiq va tazyiqlar ostida qolsa-da, gazetalar chop etdi.

JADIDLAR TO‘G‘RISIDA, jadidlik harakatlari haqida so‘z ochilsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabilarning nomlari bot-bot tilga olinadi. Haqiqatan ham 1938-yili “qatag‘on mashinasi” millatning minglab ziyoli erkparvarlarini o‘z domiga mahv etgani rad etib bo‘lmas tarixiy haqiqat. Ana shu millatning minglab farzandlari safida huquqshunos va noshir Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevich Xo‘jayev ham borki, hech ikkilanmay, Behbudiy safiga Xo‘jayevni ham qo‘shishga to‘la asos bor.

Ubaydulla Xo‘jayev to‘g‘risida ilmiy manbalardagi ma’lumotlar mavjud. Shu paytga qadar Ubaydulla Xo‘jayev haqida gap borsa, ulug‘ adib Lev Tolstoy bilan maktublashgani eslanardi, xolos. Vaholanki, Xo‘jayev katta bilim egasi, mahoratli huquqshunos, ma’rifat homiysi, millatparvar va o‘ta zakiy inson bo‘lgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, Ubaydulla Xo‘jayevni jadidlarning huquqshunosi deyish o‘rinlidir.

1909-yilning bahorida Ubaydulla Xo‘jayev Chor Rossiyasining Saratov shahridagi Ural temiryo‘l boshqarmasining yuridik bo‘limida ishlar, Tolstoy chuqur o‘rganar, tahlil etardi. O‘sha vaqtlarda tolstoychilik shakllangandi. Yovuzlikka qarshilik ko‘rsatmaslik, yozuvga yovuzlik qilmaslik aqidasi o‘sha davrning bir qancha insonlari qatori yigirma uch yoshli norg‘ul yigit – Ubaydullani ham chuqur o‘ylantirar, gohida tashvishlantirardi ham. Nihoyat, bo‘lmadi – u donishmand Tolstoyga maktub bitdi:

“...Mening tushunishimcha, “yovuzlikka yovuzlik qilma”ning negizida quyidagi bir haqiqat yotadi: mabodo kimdir bir yomonlik qilgan bo‘lsa, shu bilan u bitta yomonlik qilgan bo‘ladi, men unga qarshilik qilsam yoki yovuzlikka yovuzlik bilan qaytarib qasos olmoqchi bo‘lsam, unda, tabiiy, bir yomonlikdan

ikkinchi yomonlik paydo bo‘ladi va hokazo. Agar men yomonlik ko‘rsatmasam edi, bir yomonlik yomonligicha qolib, ikkita bo‘lmasdi, ya’ni yovuzlik kamroq bo‘lard. Bularning hammasidan xulosa shuki, yomonlikka yomonlik qilmaslik bilanmi yoki boshqa yo‘l bilanmi, xullas, qanday qilib bo‘lmasin, yovuzlikni kamaytirish chorasini qilish kerak...”

Tolstoy o‘z xayrixohini ko‘p intizor qilmaydi. 1909-yilning 5-iyunida Yasnaya polyanadan Saratov shahriga jo‘natilgan xatni pochta yon Ubaydullaga topshiradi. Jumladan, buyuk Tolstoyni bee’tibor qoldirmagan maktubga javoban bitilgan nomada shunday deyiladi:

“...Qarshilik ko‘rsatmaslik tushunchasini ham o‘z ichiga oladigan mehr-muhabbat talab etish – hech vaqt to‘la ado etib bo‘lmaydigan narsadir; shuning uchun uni ado etishga intilish ham kerak emas, degan mulohaza menga kompas tutgan shunday bir odamni eslatadi: yo‘lda manzilingga tikka bor, deb uning qo‘liga kompas tutqazganlar; u bo‘lsa, kompas ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘lda o‘tib bo‘lmaydigan to‘siqlar – tog‘lar, daryolar va hokazolar bor, shu sababdan ham men mumkin qadar mutlaqo to‘g‘ri yo‘nalishga tushib olish uchun kompasga rioya qilib o‘tirmay, boshim oqqan tomonga qarab ketaverishim mumkin, deb turib oladi...”

Qarshilik ko‘rsatmaslikni ham o‘z ichiga oladigan mehr-

muhabbat masalasida esa kompas doimo odamga nima qilish kerakligini (*sayyohga yo‘nalishni*) ko‘rsatadigan axloqiy-diniy tuyg‘udir; odamning xatti-harakatidan kelib chiqadigan oqibatlar esa hech qachon uning o‘ziga ayon bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, sayyoh uchun kompas ko‘rsatgan mutlaq to‘g‘ri yo‘nalishga mumkin qadar yaqinroq yurish birdan bir rahnamo bo‘lganidek, axloqiy idealga mumkin qadar yaqin bo‘lishga intilish – inson uchun birdan bir rahnamo bo‘lishi kerak”.

Tarixiy manbalar, xususan NKVDning arxiv hujjatlarida Ubaydulla Xo‘jayevning ayni shu vaqtlarda Ikkinchi Davlat dumasining sobiq a’zosi Abduvohidqori Abduraufqoriyev bilan hamsuhbat bo‘lgani yaxshi ayon. Darhaqiqat, ushbu uchrashuvdan so‘ng Ubaydulla Xo‘jayev Turkistonda jadidlik harakatiga xayrixoh bo‘lgan va yurak-yuragi ufqida ozodlik orzusi asta bosh ko‘targandi.

Yosh advokat Saratovda Abduvohidqori bilan gurungda jamiyatdagi muammolar yetilib turgani, ular darhol hal qilinmasa, ya’ni jarrohlik yo‘li bilan davolanmasa, yaqin kelajakda madda boylab, mahobatli, yechimsiz muammoli yaralarga aylanishini ham his etdi. Elni g‘afat uyqusidan uyg‘otish, omilik g‘ulusidan qutqarish lozimligini Ubaydulla Xo‘jayev chuqur anglardi. 1912-yili Saratov okrug sudida advokatlik shahodatnomasini olgan

Ubaydulla Xo‘jayev shu zahotiy qo‘na yurti Turkistonga qaytdi. Toshkentga qaytgan yosh advokat ukasi bilan bir necha bor

Munavvarqori suhbatida bo‘lgani, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, To‘lagan Xo‘jamiyorov – Tavallo, Muhammad Poshshaxo‘jayev, Komilbek Norbekov, Rahim Inog‘omov va boshqalar bilan bo‘lib turgan tez-tez uchrashuvlar uning Ko‘lankasini tobora tahliliga sola borgan va Rossiya maxfiy siyosiy politsiyasi Turkiston rayon muhofaza bo‘limiga Xo‘jayevning har qadami to‘g‘risida axborotlar zudlik bilan yetkazib turilgan. Darvoqe, o‘sha hujjatlarda bir so‘z ayni haqiqatan aytilgandi: Ubaydulla Xo‘jayev Munavvarqori so‘ng eng “xavfli” odam.

UBAYDULLA XO‘JAYEV turkistonlik jadidlarning eng faoli bo‘lgan. Munavvarqori aynan Xo‘jayev bilan birga “Turon” jamiyatini ta’sis etgani, “Turon” musulmon drama san’ati havaskorlari ittifoqi – “Turon” truppasini tuzgani, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasini Toshkent va Farg‘ona vodiysida sahnalashtirgani so‘zimiz dalolatidir.

1914-yilning 4-aprelida Ubaydulla Xo‘jayev bosh muharrirligida “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1-soni chop etilgani esa jadidlik harakatida ulkan voqeelik bo‘lgan. 1914-yil may oyining oxirida “Sadoyi Turkiston”dagi maqolalar uchun chaqirilgan sud gazeta faoliyatini to‘xtatish haqida hukm o‘qiydi. Ammo “niyati aqcha topush emas, ma’rifat tarqatish” bo‘lgan jadid 1915-yili mahalliy xalq orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan Anastasiy Chaykin bilan birga rus tilida “Turkestanskiy golos” gazetasi chop ettira boshlagan.

Ilm, ma’rifat insonlarni hamisha ezgulik sari yetaklagan. Ammo erksiz ezgulik bo‘lmasdi. Vale ilmsiz erkinlikning ham bo‘lmasligi kunday ravshan. Jadidlar shu jihatdan gazetalar chop etar, uni gavjum maskanlarga yetkazar edi va bu yo‘lda Ubaydulla Xo‘jayev jadidlar orasida peshqadam bo‘lgan.

U siyosiy arbob sifatida 1916-yili Andijondagi “Mardikor qo‘zg‘oloni”da jonkuyarlik bilan mediatsiya yo‘lini tutgan. Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirilgan, turkistonliklar Sibirming qarag‘ayzor o‘rmonlariga mardikorlikka olib ketilgan bo‘lsa-da, millatparvar jadid yurtdoshlari holidan xabar olib bir necha bor Sibirga borib kelgan.

Turkiston muxtoriyati tuzigach, Ubaydulla Xo‘jayev harbiy vazir bo‘lgan, muxtoriyatni asrab qolish uchun sa’y-harakat qilgan. Ijtimoiy-siyosiy faoliyati falajlangach, Lev Tolstoyning “Bolalik” va Redyard Kiplingning “Maugli” asarlarini o‘zbekchaga o‘g‘irgan.

Ubaydulla Xo‘jayev o‘z aqidasida sobit turdi: u yovuzlikka qarshi ezgulik, urushga qarshi murosa, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashib yashadi. Jadid 1938-yil 20-fevral tunida otildi. Turkiston xalqining chin vatanparvari Ubaydulla Xo‘jayev o‘limidan qariyb ellik yil o‘tib, 1989-yil 31-iyulda to‘liq oqlandi.

ORZU – TIRIKLIKNING MANBAI. Orzu insonning nainki vujudini, balki nomini ham abadiy tirik asraydi. Faqat, bu orzu pokiza bo‘lishi lozim ekan. Jadidlarning, xossatan, Ubaydulla Xo‘jayevning ham orzusi pok, niyati sof edi. Lekin proletarlar va sho‘rolarning emas. Va shuning uchun ham g‘ayriyatlarining anaxistik yo‘li bilan asos solganlari quladi... xuddi o‘zlaridek. Ammo ezgulikning nuri so‘nmasdir. Bu yog‘duni to‘sib bo‘lmaydi. Xuddi oyni etak bilan yopib bo‘lmaganidek. Yana bu yog‘duni taratganlar ham o‘lmas... xuddi Ubaydulla Xo‘jayevdek. Muhimi, orzu ezgu bo‘lishi kerak, vassalom. O‘shanda u o‘z ro‘yobini topadi.

Sarlavhada shunday savol bor edi: Xo‘jayev kim bo‘lgan? To‘g‘ri, uni jadid bo‘lgan, deyish mumkin va bunga to‘la asos bor. Va shu bilan birga Ubaydullaxo‘ja Xo‘jayev – jur‘atli matbuotchisi va jadidlarning mohir huquqshunosi ham edi.



“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga

“HUR TURKISTON UCHUN”

gazetasida jadidlar muammosi

Qo'limizga Istanbulda chop etilgan “Hur Turkiston uchun” gazetasining bir qancha sonlari tushdi. Nashr haqida ayrim ma'lumotlar Tohir Qahhorning “Hur Turkiston uchun” kitobidan topildi. “Hur Turkiston uchun” istiqlolchi gazetasi 1975-1977-yilga qadar muntazam ravishda Istanbulda turk tilida chiqib turdi. Uning asoschisi, egasi, umumiy nashriyot mudiri Ziyovuddin Boboqurbon edi. Gazetaning yozuv ishlari mudiri Gundug'di Saruxano'g'li, idora mudiri Nuriddin Pokyurak edi. Bu nashr Turkiyada, Amerika, Ovrupoda, Osiyo va Afrika mintaqalarida yashayotgan turkistonliklar ichida keng tarqaldi”, deb yozadi muallif. Kitobda keltirilishicha, mazkur nashr sho'ro davrida Vatandan haqsizlarcha ayro tushib, muhojirlikda kun kechirishga majbur bo'lgan turkistonliklar tomonidan chop etiladi.

“Hur Turkiston uchun” gazetasining 1975-yilning 15-yanvaridagi ilk sonida chop etilgan professor Ibrohim Yorqinning “Mahmudxo'ja Behbudiy (yozuvchi va maorifchi)” sarlavhali maqolasi e'tiborni tortdi. Mazkur sonda tahririyat imzosi bilan berilgan materialda nashrning nima maqsadda chop etilayotgani bayon qilinadi. Ya'ni istiqlol muammosi, mustabidlar zulmi ostida qolgan Turkistonni hur va ozod ko'rish masalasi eng katta da'volaridan biri sifatida aytiladi. “Hur Turkiston uchun” gazetasi Turkiston istiqloli da'vosining xizmatidagi nashr ekaniga urg'u berishadi. Tabiiyki, yuqorida tilga olingan maqolaning berilishi ham shu ma'noda ijodiy jamoaning maqsad va vazifalarini, gazetaning konsepsiyasini o'zida aks ettirib turibdi. Zero bu muhorabada Turkistondagi jadidlikka, jadid bobolarimiz qoldirgan merosga yuzlanmaslik mumkin bo'lmasdi.

Professor Ibrohim Yorqinning maqolasida yozuvchi va ma'rifatparvar Behbudiy portretiga chizgilar aks etadi. “Turkistonda jadidlik davri adabiyotida Mahmudxo'ja Behbudiyning roli buyukdir. Turkistonda ilk drama asar yozgan udir. U 1912-yilda “Padarkush” nomli drama asarini yozdi va bu asar 1913-yilda sahnaga qo'yildi”, deb yozadi muallif. Shuningdek, olim Behbudiyning Samarqandda 1913-1915-yillarda “Oyina” jurnalini chop ettirgani haqida to'xtalib, nashrga Samarqand va uning yaqinidagi ziyolilarni o'z atrofiga to'plagan bir markaz rolini o'ynagan, deya baho beradi. Bu bilan Behbudiy va

safdoshlarining Turkiston hurriyati uchun kurashda xalqni, jamiyatni ma'rifat bilan qurollantirishni muhim maqsad qilib belgilashganiga ishora qiladi.

Professor Naim Karimov o'zining “Mahmudxo'ja Behbudiy” kitobida Behbudiy vafotidan ikki yil o'tib, Laziz Azizzodaning “Maorif va o'qituvchi” jurnalida chop etilgan maqolasidan quyidagicha iqtibos keltiradi: “Turkistonning Uyg'onish davrini uch qismga – maorif, matbuot va jamiyatga bo'lib, shu davr rahbarlarini tekshira boshlasak, bu harakatlarning boshida Behbudiy turganini ko'ramiz”. Keltirilgan bu ikkita fikr bir-birini to'ldirib, Behbudiy va safdoshlari Vatani, millatni uyg'otish, jamiyatni milliy ozodlik uchun kurashga safarbar etishda “maorif – matbuot – jamiyat” tamoyili asosida faoliyatini olib borganini anglaymiz.

Ibrohim Yorqin maqolasining oxirida 1935-yildan so'ng Behbudiy haqida gapirish taqiqlangani, Turkiston jadidlarining otasi borasida so'z ketsa, mustabid tuzum “sovet rejimi dushmani”, “millatchi burjualarning mafkurachisi”, “ingliz imperiazmining josusi” kabi tavqi la'natlar bilan esga olishganini keltirib o'tadi. Professor buni sho'roning Behbudiy timsolida Turkiston ozodlik harakatini tag-tugi bilan yo'q qilishga qaratilgan jinoyati sifatida ko'radi.

“Hur Turkiston uchun” gazetasining tilga olinayotgan ilk sonida “She'r go'shasi” ruknida berilgan materiallar ham e'tiborni tortdi. Ya'ni Cho'lpinning “Go'zal Farg'ona”, Elbekning “Til”,

qozoq turklarining hurriyatchi shoiri Mag'jon Jumaboy o'g'lining “Turkiston” she'rlaridan parchalar bosilgan. Ya'ni jadid adabiyoti namoyandalari ijodidan namunalar bergan.

Xo'sh, mazkur gazeta o'z sahifalarida Turkistondagi jadidlik harakati haqida muntazam ma'lumotlar berganmi? Shu savol bizni o'yantirgani bois nashrning boshqa sonlarini ham ko'zdan kechirdik.

Professor Ibrohim Yorqinning “Eshon Xo'ja” nomli maqolasini ko'rib chiqaylik. Sarlavha yonida qavs ichida “1933-yilda Koshg'ar shahrida tashkil etilgan Sharqiy Turkiston jumhuriyatining asoschilaridan, ichki ishlar vaziri va davlat tashkilotchisi” deya Eshon Xo'ja shaxsiga oid ma'lumot berilgan. Maqolaning kirish qismida olim bu muhtaram zot Turkiston jadidlik harakatida muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. 1885-yilda yoxud 1886-yilda Toshkentning Shayxontohur qismida dindor Xon Xo'ja xonadonida tavallud topgani, dastlab otasi ochgan eski usul maktabida, so'ngra qarindoshi, jadidlarning ma'naviy rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lidan dars olgani keltiriladi. Gazeta maqolaning davomini 4-sonida davom ettiradi.

Gazetaning 3-sonida tahririyat “She'r go'shasi” ruknida an'anasiga sodiq qolib, jadid adabiyoti namoyandalaridan bo'lgan Cho'lpin “Sozim”, Usmon Nosir “Yurak”, Abdurauf Fitrat “Achchig'lanma degan edik” she'rlaridan parchalar beradi.

“Hur Turkiston uchun” gazetasining 1976-yilda chop etilgan sonida Temur Xo'ja o'g'li muallifligida “Turkistonda jadid maktablari” nomli maqola berilgan. Unda yozilishicha, 1893-yilda Ismoilbey Gaspirali Buxoroga keladi va shu yili uning tashabbusi bilan Samarqandda Turkistondagi ilk jadid maktabi ochiladi. Temur Xo'ja o'g'li bu fakti Mannon Ramizning “Oktabr va xalq maorifi” nomli maqolasiga iqtibosan keltiradi. “So'ngra bu ilk jadid maktabi 40 kun o'tib, amir tarafidan yopiladi. Bu ilk jadid maktabini ochgan o'qituvchi kimligi haqida hech bir ma'lumot yo'q. Ikkinchi jadid maktabini Salohiddin domla ismli bir kishi 1898-yilda Qo'qon shahrida ochadi. Ayni yili To'qmoq shahrida bir jadid maktabi ochilur. 1899-yilda Mannonqori Toshkentda, Shamsiddin domla Andijonda jadid maktabi ochishadi. Munavvarqori 1900-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, Hoji Muin va Abdulqodir Shekuriy beylar 1903-yilda Samarqandda jadid maktabi ocharlar”, deb yozadi muallif.

Maqolada muallif Turkistonda jadid maktablarini ochish jarayoni 1908-yilda tashkil etilgan “Shirkati Buxoroyi Sharif” tijorat shirkati tufayli ancha jonlanganini yozadi. Ya'ni mazkur shirkatning dars kitoblari va boshqa

o'quv vositalari uchun mablag' ajratganiga alohida to'xtalib o'tadi.

Professor Begali Qosimovning “Milliy uyg'onish – jasorat, ma'rifat, fidoyilik” nomli kitobida shunday yoziladi: “A.V. Pyaskovskiy Toshkentda birinchi o'zbek jadid maktabi 1904-1905-yilda Munavvarqori tomonidan ochilgan, ungacha bo'lganlari asosan tatar maktablari edi, deb hisoblaydi. Bu ma'lumotlar shartli albatta. Negaki ular rasman ruxsatnoma olingan maktablarnigina ko'zda tutadi”.

Temur Xo'ja o'g'li Munavvarqori Toshkentda jadid maktabini 1900-yilda ochganini professor Ibrohim Yorqinning “Turkistonda yangi usul ta'limining asoschisi va millatchi rahbar Munavvarqori” nomli maqolasiga iqtibosan keltiradi. A.V. Pyaskovskiy A. Dobrosmislovning “Ташкент в прошлом и настоящем” kitobiga suyanib, “tatar maktablari edi”, degan fikrni aytgani uchun ham professor Begali Qosimov ma'lumotlarni shartli deydi. Demak, shu faktga asoslanib, xulosa chiqarsak, Munavvarqori jadid maktabini 1900-yilda ochgani haqiqatga yaqinroq bo'ladi, bizningcha.

“Hur Turkiston uchun” gazetasining bir necha sonlarida Turkistondagi jadidlik harakatiga bag'ishlab muntazam ravishda chop etilgan materiallar tahlilidan bizda ayrim xulosalar paydo bo'ldi. Muhojirlikda yurgan ijodkor vatandoshlarimiz bu mavzuga chuqur yondashishi bilan:

- Turkiston birligi yo'lida kurashga chorlashni;
- milliy uyg'onish yo'lida kurashgan oydinlarimizni dunyoga tanitishni;
- zulm va istibdod zanjiriga bog'langan Turkiston haqida dunyoga bildirishni;
- Vatandan ayro tushgan muhojirlarning Turkiston milliy mustaqilligi g'oyasini targ'ib etishni;
- jadidlar timsolida milliy fikrni uyg'otishni maqsad qilgan bo'lishi mumkin.

Gazetadan ozod Turkiston yo'lida bitilgan o'tli satrlarni o'qir ekanmiz, muhojirlikda yashagan hur fikrli vatandoshlarni mustabid tuzum, makkor siyosat nima uchun yomonotliqqa chiqargani, tuhmat, haqoratlar bilan badnom qilganini yanada teran anglaymiz.

Alijon SAFAROV,
O'zJOKU Harbiy va sport
jurnalistikasi kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Osoyishta sarhad – barchamizniki!



Tadbir davomida bir guruh san'at va madaniyat fidoyilari DXX Chegara qo'shinlari hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan munosib rag'batlantirildi.

Shundan so'ng taniqli san'at namoyandalari, yosh ijodkorlar, so'z ustalari, bolalar ijodiy guruhlari hamda mahoratli raqs jamoalari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturi barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy ansambllarning vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlari ham yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

– Konsert dasturimizni “Osoyishta sarhad – barchamizniki!” deya nomlaganimiz bejiz emas, albatta. Zero Vatan chegaradan boshlanadi. Davlat chegarasi – bu mustaqillik, xotirjamlik va tinchlik timsoli. Shu bois uning osoyishtaligi ham barchamiz uchun birdek muhim va qadri. Biz hozirda ansamblimiz jamoasi bilan ustozlarimizning yaxshi an'alarini davom ettirgan holda, ijodiy imkoniyatlarimizni yanada kengaytirishga harakat

qilyapmiz. Qolaversa, bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan katta islohotlar amalga oshirilib, Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli tamomila yangi qiyofa kasb etayotgani ham alohida e'tirofga sazovor. Albatta, bizga yaratilayotgan bunday imkoniyat va shart-sharoitlardan unumli

San'at – inson qalbini yuksaklarga chorlaydi. Ayniqsa, kuy va so'z uyg'unligi – mislsiz ma'naviy qudrat ifodasi. Ana shunday qudrat sohiblari sifatida xalqimiz va sarhadlarimiz himoyachilari yuragini mardonavor kuy-qo'shiqlari-yu unutilmas raqslari bilan zabt etgan O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli tashkil etilganiga 25 yil to'ldi.

Shu munosabat bilan poytaxtimizdagi “Turkiston” san'at saroyida konsert dasturi tashkil etildi. “Osoyishta sarhad – barchamizniki!” deya nomlangan tadbir madaniyat vaziri, O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov, DXX Chegara qo'shinlari rahbariyati, ansamblning faxriy ijodkorlari hamda san'atkorlar, shuningdek Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy ansambllar ishtirok etdi.

Tadbir avvalida 2000-yilda o'z faoliyatini boshlagan mazkur badiiy jamoaning tashkil etilishi tarixi va uning 25 yillik faoliyati aks ettirilgan videofilm namoyish etildi.

Shundan so'ng tabrik so'zlariga navbat berilib, unda qutlovchilar tomonidan sharaflini bosib o'tgan ansambl, o'z faoliyati davomida butun mamlakatimiz bo'ylab eng olis nuqtalarda davlat chegaralari daxlsizligini ta'minlab kelayotgan olovqalb o'g'lonlarga jangovar ruh bag'ishlash, ularning shijoatini yanada oshirish, oila a'zolarining ma'naviy olamini boyitish maqsadida, o'n

minglab konsert dasturlari namoyish etgani, bu esa ansamblni nafaqat badiiy jamoa, balki yurt himoyachilari uchun ruhiy quvvat manbai sifatida shakllanishiga ham xizmat qilgani ta'kidlandi.

Shu bilan birga ansambl xonandalari nafaqat yurtimiz, balki xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan

ko'rik-tanlov va festivallarda munosib ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgani uning ijodiy salohiyati kundan kunga ortib borayotganidan dalolat ekani ham e'tirof etildi.

foydalangan holda, yana ko'p yillar davomida sarhadlarimiz posbonlari, ularning oila a'zolari va xalqimizga xush kayfiyat ulashishda davom etamiz, – deydi katta leytenant Shabbobbek O'rinov.

Darhaqiqat, ansambl yurt himoyachilarining yuragidan jo'shib chiqqan sado. Uning kuy-qo'shiqlari millatimiz g'ururi, raqslari esa jasorat madhiyasidir. Ushbu jo'shqin sadolar Ona Vatanimiz va uning sarhadlari uzra abadiy jaranglab tursin.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Mushohada

IKKI INSON bo'ling

Shiddat bilan odimlayotgan XXI asrda nafaqat o'qish, balki xorijiy tillarni ham o'rganish insonga faqat foyda olib keladi.



Masalan, ingliz, rus, turk, koreys kabi tillarni o'rgangan va ushbu tillardan sertifikatga ega bo'lgan mutaxassislariga ko'proq maosh to'lanadi. Ammo ayrimlar inson o'z ona tilini mukammal bilishi kerak deb hisoblaydi. Umuman olganda, ularning fikri o'rinli, boisi har ikki gapida "parazit" so'zlardan foydalanayotgan kishilarga ko'zimiz tushadi, ular orasida biz ham yo'q emasmiz, hatto ba'zilar chetdan kirib kelgan so'zlarni ko'p qo'llaydigan shaxslarga "ideal" sifatida qaraydi. Bu qarash, noto'g'ri.

Avvalo, inson ona tilini sevishi, so'z boyliklaridan mohirona foydalangan holda go'zal suhbat qura olishi kerak. Nega ona tili deyiladi, bilasizmi? Chunki onamiz bizga shu

tilda alla aytgan. Shu bois tilni ham onamiz kabi ardoqlashimiz zarur.

Inson qiziqsa, eplasa, qo'lidan hamma narsa keladi. Ona tili bilan birgalikda boshqa xorijiy tillarni ham o'rgansa, nur ustiga nur. Negaki, zamon shuni talab qilibgina qolmay, majburiyatlar qatoriga qo'yimoqda.

Til o'rganishni yana bir qancha afzalliklari bor, masalan, chet ellik kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, ular bilan suhbatlashish, fikr almashish, boshqalarga ham til o'rgatish, kitoblarni asl holda o'qish, tarjimonlik faoliyatini yo'lga qo'yish mumkin. Xullas, til bilgan el biladi.

To'g'ri, hech qaysi tilni, ona tilimizni-da to'liq, mukammal o'rgana olmaymiz. Lekin hech

bo'lmaganda, farzandlarga o'rgatish yoki vaqtni behuda sarflamaslik uchun ham bir bora harakat qilib ko'rish kerak.

Bir tilni bilgan inson – bir inson, ikki tilni bilgan inson – ikki inson. Boisi til o'rganish jarayonida inson ko'p haqiqatlarni anglab yetadi, bir til ortida bir o'lka, xalq turgan bo'ladi. Har o'lkaning, har tilning o'z tabiati bor. Til o'rganish jarayonida inson o'zgaradi, bir til orqali ko'plab bilimlarga ega bo'ladi, undagi odamlardan bir qator fazilat va hayotiy saboqlar oladi.

Xullas, har bir til o'zgacha dunyodir. Siz ham o'z dunyongizdan chiqib, boshqa dunyolarga sayohat qiling, bir inson emas, ikki va undan ortiq inson bo'ling. Ishonavering, afsuslanmaysiz!



KASBIMIZ baxtimizga aylansin

Inson tug'ilibdiki, hayotda o'z o'rnini topishga, sevgan ishi bilan shug'ullanib, jamiyat rivojiga hissa qo'shishga intiladi. Ammo ko'pchilik ota-ona farzandlarining kasb tanlash jarayoniga jiddiy qarshilik ko'rsatib, farzandi qiziqmasada, o'zlari istagan sohani tanlashga majburlash holatlari kuzatiladi. Sizningcha, hayotda insonga bu yo'lni ota-onasi tanlab berishi kerakmi yoki qiziqishlaridan kelib chiqib insonning o'zi qaror qabul qilishi kerakmi?

Kasb inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Inson hayotida ikki vaqtda: birinchisi, turmush o'rtoq, ikkinchisi, kasb tanlashda yangilishmasligi zarur. Bo'lmasa, badalini hayoti bilan to'laydi. Kishi kasbi orqali yo baxtli bo'ladi, yo baxtsiz, uning butun hayoti kasbga bog'liq. Ba'zan baxt ham kasb orqali keladi. Shu bois uni tanlashda zinhor adashmasligimiz darkor.

Ota-onamiz biz, dilbandlariga faqat va faqat yaxshilikni ravo ko'radi. "Men ko'rganlarimni bolam ko'rmasin", deydi. Ular farzandlariga kasb, hatto universitet ham tanlab berib, ularning nimaga qiziqishini o'ylab ham o'tirmaydi. Masalan, kundalik hayotda ko'rib turibmiz-ku, ota san'atkor bo'la turib, farzandiga ushbu kasb egasi bo'lishiga ruxsat bermaydi. Chunki o'zi qaysidir ma'noda u kasbning achchiq azobi-yu qiyinchiliklarini totib ko'rgan, shu tufayli farzandining ham qiynalishini istamaydi. Lekin, bilmaydiki, farzandining bunga o'zgacha mehri, qiziqishi va qobiliyati bor.

Bunday cheklovlar ko'proq qizlarga qo'yiladi. Qiz bola Milliy gvardiya xodimi, deputat, bankda ishlashi mumkin emas... Ko'pchilik odamlar shunday fikr yuritgani bois jamiyat rivojlanmaydi. Tushuning, farzandingizning matematikaga emas, san'atga iste'dodi bor. Uni dastaklasangiz, kelajakda undan buyuk san'atkor chiqishi mumkin.

"Qiz bola ona tili va adabiyotni o'qishi kerak, sababi aqli faqat shunga yetadi, o'g'il bola esa matematikani o'qishi kerak, unga shu mos", degan gap hech qayerda yozilmagan. Farzandingizga jinsiga qarab, fan tanlab bermang. U shu fanga qiziqyaptimi, demak, uddalaydi.

Hayotimiz davomida ota-onasi tanlab bergan kasb va hayotdan mamnun, lekin o'zi istab tanlagan kasbdan afsus chekayotgan har turli odamlarni ham ko'ramiz. Ulardan to'g'ri saboq olmoq lozim. Muhim jihati, sizga kasbni kim tanlab berishida emas yoxud nima ish qilishingizda emas, siz uni sevishingizda.

Matluba SHAKAROVA, Halima XUDOYBERDIYEVA nomidagi ijod maktabi 11-sinf o'quvchisi, "Yosh ijodkorlar" to'garagi a'zosi

Yoz – o'tmoqda soz



"CHAQMOQ TRENING" – VATANPARVARLIK DARSII

Har qanday millatning mustahkam poydevori, taraqqiyot sari ishonch bilan ilgariyasi, avvalo, yosh avlodning ma'naviy kamolotga erishgani, ularning Vatanga bo'lgan sadoqati va fidoyiligiga bog'liq. Chunki yurt ravnaqi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan asosiy kuch – bu vatanparvar yoshlar sanaladi.

Vatanparvarlik – bu shunchaki so'z emas, balki qalbdan joy oladigan muqaddas tuyg'u. Ona zamin va yurt taqdiriga bo'lgan fidokorlikning ifodasi. Mana shu tuyg'uni har bir yosh qalbiga singdirish, ularni yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan sog'lom fikrli, bilimli va sadoqatli fuqaro qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu ma'noda Mudofaa vazirligiga qarashli Navoiy viloyatining Zarafshon shahrida

joylashgan harbiy qism harbiy xizmatchilari tomonidan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohida "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida "Chaqmoq trening" harbiy sport musobaqalari o'tkazilgani ahamiyatli bo'ldi.

Do'stona ruhda o'tgan bellashuvlar bolajonlar uchun ham zavqli, ham ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ldi. Bolajonlar jamoa bo'lib jami 5 ta shart bo'yicha: "Darts uloqtirish", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Yugurish", "Arqon tortish", "Stol xokkeyi" kabi bir qator shartlar asosida kuch sinashdi.

Muhimi, bu musobaqalar orqali yoshlar nafaqat jismoniy faollik, balki jamoaviylik, o'zaro hamjihatlik va irodaviy tayyorgarlik singari zarur fazilatlarini namoyon etdi. Ularda g'alabaga ishonch, maqsadga intilish va hamkorlikda harakat qilish ko'nikmalari mustahkamlandi.

Shiddatli va muhosasiz bahslar hakamlar hay'ati tomonidan munosib baholab borildi. Tadbir so'ngida g'oliblar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shahnoza SULTANOVA,
TOQQQ matbuot xizmati

Sog'lom turmush tarzi



AEROB MASHQLAR – HARBIY KUCHNING YASHIRIN QUDRATI

Jismoniy faollik bu nafaqat tashqi qiyofani tartibga solish vositasi, balki ichki olam, butun organizmning barqaror ishlashini ta'minlovchi qudratli omildir. Har bir qadam, har bir nafas – hayot uchun kurash, uzoq va mazmunli umr uchun intilish demak. Bugungi tezkor va zamonaviy hayotda jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarzining ajralmas bo'lagi sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy hayot ritmi – kompyuter qarshisida ko'p o'tirish, doim avtomobilda harakatlanish, ko'pincha jismoniy passivlik bilan kechadigan turmush uslubi inson organizmiga ko'plab salbiy ta'sirlar ko'rsatayotgani ayni haqiqat sanaladi. Natijada inson tanasida qon aylanishi sekinlashadi, mushaklar zaiflashadi, asab tizimi taranglashadi. Buning oldini olish uchun albatta sport bilan shug'ullanish nafaqat kerak, balki zarur ehtiyoj hisoblanadi.

Ana shunday sharoitda Kennet Kuper tomonidan ilgari surilgan aerob mashqlar inson hayotiga yangi nafas, yangi ruh olib kiradi. Bu mashqlar inson organizmining kislorodni qabul qilishi, qonga tarqatishi va ishlatishiga asoslangan holda uning jismoniy va ruhiy salohiyatini oshiradi. Shuning uchun ham aerob mashqlar so'nggi o'n yilliklarda jahon bo'ylab millionlab insonlar hayotida o'z o'mini topdi.

Aerob mashqlar ko'plab ijobiy samaralar berishi bilan ajralib turadi. Ular butun kun davomida kuch va energiya zaxirasini oshiradi, ovqat hazmini yaxshilaydi, ortiqcha vaznni kamaytiradi va suyak to'qimalarini mustahkamlaydi. Bunday mashqlar orqali aqliy va jismoniy qobiliyatlar yuksaladi, tinch uyqu, yuqori ish qobiliyati, stress va depressiyadan himoya ta'minlanadi.

Shuning uchun ham Kuperning aerobika haqidagi qarashlari nafaqat sportchilar, balki keng jamoatchilik uchun ham foydali va amaliy tavsiyalar manbaiga aylandi.

Kuper inson qarish jarayonini to'xtatishi mumkin deb da'vo qilmaydi, lekin uni sekinlashtirishi, tanadagi tabiiy o'zgarishlarni nazorat ostiga

olishi mumkinligini ta'kidlaydi. Kuper o'z tadqiqotlarida shunday xulosaga keladiki, aerob mashqlar inson organizmida nafaqat jismoniy, balki ruhiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Ular – yugurish, suzish, velosiped haydash, tez yurish, hatto raqs kabi mo'tadil, ritmik harakatlarga asoslangan mashqlar bo'lib, organizmni kislorod bilan to'yintiradi. Ushbu mashqlar natijasida organizmning umumiy tonusi, chidamliligi va hayotiy faolligi oshadi.

Aerob mashqlarning ahamiyati shundaki, ular:

- bir kunlik hayotiy quvvat zaxirasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- ovqat hazm qilish tizimini yaxshilaydi, ich ketish yoki qabziyatning oldini oladi;
- ortiqcha vazndan xalos bo'lish va optimal vaznni ushlab turishda yordam beradi;
- suyak to'qimalarini mustahkamlaydi, osteoporozning oldini oladi;
- aqliy qobiliyat va ishchanlik faolligini oshiradi;
- uyquni me'yorlashtiradi, emotsional tushkunlikdan xalos etadi;

● stresslarga bardoshni oshiradi;

● yurak-qontomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, infarkt xavfini kamaytiradi.

Kuper insonni passiv hayot tarzidan bosh tortib, faol turmush sari intilishga undaydi. U organizmdagi o'zgarishlarni yosh bilan bog'lamaydi, balki harakatsizlik bilan izohlaydi. Ya'ni inson qarimaydi, balki "qotib qoladi".

Bugungi kunda jismoniy faollikning turli ko'rinishlari mavjud. Izometrik mashqlar mushaklarni taranglashtirishga qaratilgan bo'lsa, izotonik mashqlar harakatlar bilan birgalikda bajariladi. Izokinetik mashqlar esa muvozanatli tezlikda harakatlanishga asoslangan. Anaerob mashqlar – shiddatli va qisqa muddatli faoliyat bo'lsa, aerob mashqlar aksincha, barqaror va uzoq davom etadigan, organizmni kislorod orqali to'yintiradigan faoliyat shaklidir.

Kuperning mashhur 12 daqiqalik yugurish testi ham ana shunday aerob qobiliyatlarni baholashning samarali usuli sifatida tan olingan. Bu test orqali insonning jismoniy tayyorgarligi, chidamliligi va salomatligi xolis baholanadi.

Aerob mashqlar nafaqat sportchilar, balki har qanday inson uchun ham muhim. Ular nafaqat faol ishlashni, balki hayotdan qoniqish hissining ortishiga sabab bo'ladi.

Aerob mashqlar quyidagi fiziologik o'zgarishlarga olib keladi:

● qon hajmi oshadi, kislorod tashish qobiliyati ortadi;

● o'pkaning hayot sig'imi yaxshilanadi, nafas olish samaradorligi ortadi;

● yurakning ish qobiliyati mustahkamlanadi, har bir urishda ko'proq qon qontomirlarga yuboriladi;

● qondagi xolesterin miqdori kamayadi, ateroskleroz rivojlanish xavfi pasayadi.

Sportchilar uchun aerob imkoniyatlarni rivojlantirish nafaqat natijalarni yaxshilash, balki jarohat olish xavfini kamaytirishda, musobaqalarda uzoqroq vaqt davomida yuqori natija ko'rsatishda ham muhim ahamiyatga ega.

Kuper aerob mashqlarning foydasi haqida so'z yuritar ekan, ularning travma olish xavfini kamaytirishi, sport natijalarini barqarorlashtirishi, sportchi umrini uzaytirishi va inson organizmida mustahkam ijobiy o'zgarishlar yuzaga keltirishini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, aerobika nafaqat jismoniy sog'lomlashtirish, balki ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita hamdir. U nafaqat sport, balki sog'lom hayot sari qo'yilgan uzluksiz va olib borish oson bo'lgan amaliy qadam sanaladi. U shaxsiy ish qobiliyat, aqliy faollik, yoshga mos harakatchanlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Inson har kuni 30-40 daqiqa mo'tadil yugurish, yurish yoki suzishni odat qilsa, organizmida juda ko'p ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu esa faqatgina uzoq umr, yaxshi ko'rinish yoki yaxshi natija emas, balki hayot sifati oshishi demakdir. Shu bois bugungi kunda harbiylar orasida ham aerob mashqlar keng tarqalmoqda. Chunki harbiy xizmat bu nafaqat intizom va sadoqat, balki yuksak jismoniy va psixologik chidamlilikni talab qiluvchi mas'uliyatli faoliyatdir. Zamonaviy harbiy harakatlarda yuqori tezlik, uzoq masofaga yurish, to'satdan yuzaga keladigan zo'riqishlar va ekstremal sharoitlarga moslashish salohiyati harbiylarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga, ayniqsa aerob tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi. Ana shunday sharoitda aerob mashqlar harbiy xizmatchilarning yurak-qontomir, nafas olish va mushaklar tizimini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Amerikalik harbiy fiziologlar Gratsiya va Kollins o'z tadqiqotlarida qayd etishicha, aerob tayyorgarligi yuqori bo'lgan harbiylar kutilmagan yuklamalarga, uzoq mashqlar va yurishlar davomida ruhiy hamda jismoniy barqarorlikni yaxshiroq saqlaydi. Ularda charchoqning kechikishi, reaksiya tezligi va diqqatni jamlash qobiliyati yuqori bo'ladi. Shuningdek, aerob mashqlar xizmatchilarning jangovar mashg'ulotlardan keyingi tiklanish jarayonini tezlashtiradi, ortiqcha vazn, gipertoniya, diabet, xolesterinning yuqori darajasi kabi xavfli omillarni kamaytiradi. Bu omillar harbiy xizmatda ham samaradorlikni, ham uzoq muddatli xizmat qobiliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, aerob mashqlar harbiy xizmatchilar uchun faqatgina jismoniy zo'riqishlarga tayyorgarlik emas, balki strategik jihatdan muhim salomatlik, chidamlilik va samaradorlik omili ham hisoblanadi.

**Podpolkovnik
Tohir RAXMETOV,
Qurolli Kuchlar
akademiyasi
katta o'qituvchisi**



Salomatlik



ISSIQ

URISHIDAN SAQLANING!

Hozirgi kunda yurtimizda taxmin qilingan issiq ob-havoning me'yoridan ancha yuqori bo'layotganini kuzatyapmiz. Jazirama issiqning ta'siri nafaqat ekologik muhitning buzilishiga olib keladi, balki insonlar salomatligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Inson tanasiga quyosh nurining to'g'ridan to'g'ri ta'siri yoki me'yoridan ortiqcha issiqlik natijasida organizmda turli salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Aslida sog'lom odam organizmi o'zgarib turadigan tashqi muhit haroratiga yaxshi moslashadi. Inson tanasi qahraton sovuqda ham, jazirama issiqda ham tana haroratini bir maromda ushlab turadi. Tana haroratining bir maromda turg'un saqlanishi asosan terlash hisobidan tanani

sovutish xususiyati orqali amalga oshiriladi. Haddan tashqari terlash oqibatida inson tanasidan bir kun mobaynida 10 litrgacha suv chiqib ketishi mumkin. Bu ilmiy-tibbiy tilda termoregulyatsiya, ya'ni tanadagi haroratni boshqarish deyiladi. Tananing haddan tashqari qizib ketishi va

terlashi oqibatida organizm biroz suvsizlanadi va 2 soat mobaynida organizmdan 10 grammgacha natriy xlorid tuzi chiqib ketadi.

Issiq urishining quyidagi turlari mavjud: organizmning qizib ketishi, dehidratatsiya (suvsizlanish va tuzsizlanish).

Issiq urishi bosh kiyimsiz quyoshning tik tushuvchi nuri ostida uzoq vaqt davomida turish oqibatida bosh miyaning qizib ketishidir. Issiq urganda miyada hayotiy muhim bo'lgan markazlarning ishdan chiqishi yuz beradi. Natijada bosh og'rishi, ko'z tinishi, bosh aylanishi va ko'ngil aynishi, yuz sohasining qizarib ketishi kabi alomatlar yuzaga keladi. Bemor birdaniga hushdan ketishi ham mumkin, nafas va yurak urishi tezlashadi, qayt qiladi, tana harorati ko'tariladi.

Issiq urishi jaziramada yuqori darajadagi havo haroratining uzoq vaqt mobaynida inson organizmiga ta'siri natijasida tananing umumiy qizib ketishidir. Chanqash, lohaslik, bosh og'rishi, quloq shang'illashi, ko'p terlash, yurak urishining tezlashishi va tana haroratining ko'tarilishi yuzaga keladi. Ushbu holatlarda bemorga yordam ko'rsatilsa, bu belgilar tez o'tib ketishi mumkin.

Issiq urishiga olib keluvchi omillarga faslga mos bo'lmagan libos kiyish, vaqtda ovqatlanmaslik, bir xonada ko'p vaqt mobaynida mashg'ulotlar olib borish va tanada terlash

sababli hosil bo'lgan chanqoqlik hissini vaqtida qondirmaslik kiradi. Bular natijasida qon quyuqlashadi, mineral tuzlarning odatdagi mutanosibligi o'zgaradi, markaziy asab tizimining turli bo'limlari faoliyati buzilishiga olib keladi.

Oftob urganda birinchi yordam ko'rsatish:

jabrlanuvchini dastavval salqin joyga olib o'tib, garizental holatda yotqizish, kiyim-boshini butunlay yechish, oyoqlarini ko'targan holda yotqizish, badanini sovuq suvda ho'llangan sochiq bilan artish va ko'proq suyuqlik ichirish zarur bo'ladi. Boshiga, ayniqsa yirik qontomirlari o'tadigan soha, ya'ni bo'yinning ikki yoni, qo'ltig'i va chov sohasiga muzli xaltacha yoki sovuq suv solingan idish qo'yish zarur.

Bemor hushini yo'qotsa, nashatir spirtini hidlatib uni hushiga keltirish va tez fursatda tibbiyot punktiga yetkazish talab etiladi. Shuni unutmashlik zarurki, qizigan va qizargan teriga spirt surtish aslo mumkin emas. Chunki u teridagi mayda teshikchalarning og'zi berkilib qolishiga, teri yuzasining kuyishiga olib keladi va tanadagi issiqlikning tashqariga chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Issiq urishidan saqlanish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

- quyoshning tik nurlari ostida kiyimsiz va bosh kiyimsiz yurmaslik, tanani shamollatish yanada samaraliroq bo'lishi uchun esa kiyimning yengini qaytarib yurish tavsiya etiladi;

- mashg'ulotlar jadvaliga to'liq rioya qilish, tushlikdan oldin va keyin 30 daqiqalik

dam olish uchun vaqt ajratish, tushlikdan so'ng jismoniy zo'riqishni talab etadigan mashg'ulotlarni bajarmaslik;

- ovqatlanishni tashkil etishda ko'p kaloriyalik ovqatlarni kunning salqin vaqtlariga belgilash;

- barcha harbiy xizmatchilarning shaxsiy suvdonlari bo'lishi va ularni o'z vaqtida qaynatilgan suv yoki choy bilan to'ldirish, chanqoqni qondirish uchun esa har 1-2 soatda 1-2 stakandan qaynatilgan suv yoki choy ichish tavsiya etiladi;

- shaxsiy tarkib bilan harbiy-jismoniy mashg'ulotlar o'tkazishda ularning jismoniy sifatlariga e'tibor berish, harbiy dala-o'quv maydonlariga mashg'ulot o'tish uchun chiqish oldidan shaxsiy tarkibni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga kerakli ko'rsatmalar berish. Dala-o'quv maydonlariga piyoda chiqish vaqtida quyosh nuridan himoyalangan joylarda 10-15 daqiqalik qisqa dam olishni tashkil qilish;

- shaxsiy tarkibning mashg'ulotlar orasida cho'milishi uchun harbiy shaharchalar va dala-o'quv maydonlarida yozgi dushlar tashkil qilish;

- tibbiyot xodimlari tomonidan shaxsiy tarkibga issiq urishidan saqlanish to'g'risida hamda jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha suhbatlar tashkil qilish yaxshi samara beradi.

Tibbiy xizmat katta leytenanti F. NIYOZOV, Qurolli Kuchlar xizmatchisi B. AHMEDOV, Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassislari

Dolzarb 90 kun

YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI



Yozgi ta'til bolalar hayotida quvonch va yangi taassurotlarga ega bo'lishi barobarida ularning ma'naviy va jismoniy yetuklik tomon qadam tashlashida beqiyos imkoniyatlar davridir. Ushbu yondashuv doirasida respublika miqyosida "Dolzarb 90 kun" tadbirlari tashabbusining amaldagi ifodasini Mudofaa vazirligi tomonidan ilk bor tashkil etilgan "Chaqmoq trening" harbiy sport musobaqasi misolida ko'rish mumkin.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni sog'lom turmush tarzi, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mudofaa vazirligi "Tong" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida harbiy xizmatchilarning farzandlari bir vaqtning o'zida hordiq ham chiqaradi, ham bilim va tajriba orttiradi. Ular uchun maxsus tayyorlangan dastur asosida o'tkazilgan "Chaqmoq trening" musobaqasi vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga, jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantirishga, harbiy sohaga

nisbatan qiziqishni oshirishga qaratilgan.

"Chaqmoq trening" nafaqat sportga oid musobaqa, balki yosh avlod ongida vatanparvarlik tushunchasini anglashga yo'naltirilgan ijtimoiy-ma'naviy loyihadir. Chunki bu yerda musobaqa jarayoni ham, sovringa sazovor bo'lish ishtiyoqi ham o'ziga xos bir ma'naviy sinovga aylanadi. Har bir bola o'z qobiliyatini sinaydi, do'st orttiradi, kuchini his qiladi va eng muhimi, Vatan degan muqaddas tushunchaning zamonaviy mazmunini o'z tajribasi orqali anglay boshlaydi. Aynan shunday o'quv-tarbiya va dam olish

shakllari orqali jamiyatga sog'lom, jismonan baquvvat, ruhan barqaror va ma'naviy jihatdan yetuk avlodni kamolga yetkazish mumkin.

Mazkur tajriba bilan cheklanib qolmasdan, musobaqalar Mudofaa vazirligining barcha harbiy muassasalari qatori Toshkent harbiy okrugi, umumta'lim maktablarida tashkil etilgan dam olish oromgohlarida va mahallalarda bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. Bu esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi endilikda yagona hududda emas, balki respublika miqyosida tizimli tarzda amalga oshirilayotganini anglatadi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari o'rtasida tashkil etilayotgan musobaqalar bolalarning nafaqat jismoniy chiniqish omili, balki ularning ongida Vatan, burch, halollik va jasorat tushunchalarini yoritib beruvchi harbiy-ma'naviy tarbiya mexanizmidir. Bu yo'ldagi har bir harakat ertangi kunning jasur himoyachisini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa mudofaa tizimida uzoqni ko'zlagan, vatanparvarlik tamoyiliga asoslangan yondashuvning amaliy isbotidir.

Yulduz XOLBOYEVA, Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Trening

TARBIYAVIY ISHLAR

SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LIDA



Tadbiring birinchi kunida mehmonlar harbiy qismda tashkil etilgan madaniyat va sport to'garaklari bilan tanishdi.

Kunning ikkinchi yarmida esa ishtirokchilarni ruhiy-ma'naviy jihatdan boyituvchi turkum amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. "Men kim?", "Oilalarda konfliktlarning oldini olish", "Oilaning ma'naviy qiyofasi" kabi dolzarb mavzularda tashkil etilgan treninglarni falsafa fanlari

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan harbiy qismda Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikning Toshkent viloyati va shahrida joylashgan harbiy qismlardagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy psixologlar, harbiy xizmatchi ayollar va harbiy oilalar bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislar ishtirokida metodik-psixologik trening o'tkazildi.

doktori, professor, xalqaro toifadagi ekspert Jamila Shermuhammedova yuqori saviyada olib bordi.

Yakunda tadbir ishtirokchilarining ma'naviy horidiq chiqarishlari ta'minlandi: tog' bag'ridagi mobil madaniyat markazida harbiy orkestr xonandalari tomonidan Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar yangradi. Bu qo'shiqlar xalq va armiya, oila va Vatan degan muqaddas tushunchalarni qablarga yana bir karra muhrladi.

Tadbiring ikkinchi kunida esa harbiy qism madaniyat markazida davra suhbat va psixologik mashg'ulotlar o'tkazildi. Unda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda, xususan milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi muhim qadamlar haqida atroflicha ma'lumotlar berdi.

Aytish joizki, soha mutaxassislarini keng jalb qilgan holda o'tkazilgan bu kabi psixologik treninglar harbiy oilalar bilan samarali ishlarni olib borishda hamda oilaviy konfliktlarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TOQQQ matbuot xizmati

Minifutbol

Sport — sog'liq garovi

Harbiy prokuratura organlarida xizmat qilayotgan prokuror-tergov xodimlarining salomatligi va sog'lom turmush tarzini barqaror saqlash hamda sportning ommaviylikini oshirish maqsadida muntazam ravishda turli musobaqalar o'tkazib kelinmoqda.

Minifutbol bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori kubogi" uchun o'tkazilgan musobaqa ham bu boradagi tadbirlarning amaliy davomi bo'ldi. Unda hududiy harbiy prokuratura va mahkama tarkibiy tarmoqlari jamoalari g'oliblik uchun do'stona kurash olib bordi. Murosasiz va qizg'in kechgan final bosqichi natijalariga ko'ra, sovrindor jamoalar medal, diplom va sovg'alar bilan taqdirlandi.

G'olib jamoaga "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori kubogi" tantanali tarzda topshirildi.

Adliya podpolkovnigi
Aziz ALIMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi bo'lim
harbiy prokurori

Stol tennisi

Harbiy prokuratura organlari xodimlari o'rtasida stol tennisi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori kubogi" uchun o'tkazilgan musobaqalar yakunlandi.

G'oliblar aniqlandi

O'zbekiston stol tennisi federatsiyasi zalida o'tgan final bosqichida ishtirokchilar g'oliblik uchun qizg'in kurash olib bordi.

Natijalarga ko'ra, mahkama bo'lim harbiy prokurori A. Nazarov birinchi, Qarshi harbiy prokuraturasi xodimi R. Latipov ikkinchi va Navoiy harbiy prokuraturasi xodimi Sh. Ashurov uchinchi o'rinlarni egalladi.

Taqdirlash marosimida sovrindorlarga Bosh prokuror o'rinbosari - O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev tomonidan diplom, medal, esdalik sovg'alar hamda g'olibga kubok tantanali ravishda topshirildi.

Adliya podpolkovnigi
Gulchehraxon TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi

Shaxmat

Harbiy prokuror kubogi

Harbiy prokuratura organlari tomonidan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ular o'rtasida sportni keng targ'ib qilish orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida muntazam ravishda turli sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda.

Bu boradagi amaliy tadbirlarning davomi sifatida Jamoat xavfsizligi universitetida "Harbiy prokuror kubogi - 2025" sport musobaqasi tashkil etildi. Unda Jamoat xavfsizligi universiteti, Huquqni muhofaza qilish, Qurolli Kuchlar, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Harbiy tibbiyot akademiyalari, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Bojxona instituti, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kursant va talabalari kuch sinashdi.

Qatnashchilar sportning shaxmat turi bo'yicha bellashuv jarayonida aql-zakovat, strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish salohiyatlarini namoyon etdi.

Har bir ishtirokchining o'yini katta qiziqish bilan kuzatildi, ularning idroki va saboti tomoshabinlar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi.

Qizg'in kechgan aql bahsida g'olib jamoalarga diplom, medal, esdalik sovg'alar va kubok tantanali tarzda topshirildi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Sayyor qabul

Nukus harbiy prokuraturasi va Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamkorligida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi harbiy qismlarning birida ommaviy sayyor qabul hamda bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Inson qadri uchun

Unda hududdagi korxonalar va tashkilotlardan tegishli soha mutaxassislari jalb etilgan holda harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolari hamda yoshlarning muammolari tinglandi.

Jarayonda murojaatlarni joyida ijobiy hal etish choralari ko'rildi.

Mehnat yarmarkasida esa harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga ularning mutaxassisligiga mos keladigan bo'sh ish o'rinlari taklif etildi.

Adliya podpolkovnigi
Sultanmurat KALENDEROV,
Nukus harbiy prokurorining
katta yordamchisi

O'zbekiston chempionati

Avtomodel

bo'yicha kuchlilar saralandi



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Samarqand shahrida sportning avtomodel turi bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.



Musobaqada 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar "TEMP", "AM-1", "AM-2" va "K-2" sinflarida, undan katta yoshdagi sportchilar esa "E-1", "E-2", "E-3" va "E-4" sinflarida o'zlarini yasanagan avtomodellar bilan ishtirok etdi.

Hakamlar modellarining detallari va ularning harakatlanish tezligini sinchiklab o'rganib, tegishli baho berdi.

Do'stona va murosasiz kechgan bellashuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"AM-1" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Behro'zbek Anvarov (Farg'ona viloyati);
2-o'rin: Muhammadziyo Nizomov (Farg'ona viloyati);
3-o'rin: Anvar Ochilov (Buxoro viloyati).

"AM-2" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Shamil Bakov (Farg'ona viloyati);
2-o'rin: Muhammadamin Azizov (Farg'ona viloyati);
3-o'rin: Ahrorjon Asrorov (Buxoro viloyati).

"TEMP" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Oydinoy Muhammadaminova (Andijon viloyati);
2-o'rin: Mustafu Muhammadaliyev (Farg'ona viloyati);
3-o'rin: Shohjahon Zaripov (Buxoro viloyati).

"K-2" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Akbarjon Abidov (Andijon viloyati);
2-o'rin: Abdulloh Shuhratov (Farg'ona viloyati);
3-o'rin: Firuz Bahodirov (Buxoro viloyati).

"E-1" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Nail Xakimzanov (Andijon viloyati);
2-o'rin: Farrux Safoyev (Navoiy viloyati);
3-o'rin: Ilhom Qobilov (Farg'ona viloyati).

"E-2" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Sergey Belovalov (Andijon viloyati);
2-o'rin: Shamsiddin Bafojev (Buxoro viloyati);
3-o'rin: Damir Mutalapov (Farg'ona viloyati).

"E-3" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Akmaljon Abidov (Andijon viloyati);
2-o'rin: Nodir Abdullayev (Farg'ona viloyati);
3-o'rin: Bekzod Rahmonov (Navoiy viloyati).

"E-4" sinfi bo'yicha:

- 1-o'rin: Anton Belovalov (Andijon viloyati);
2-o'rin: Alisher Mirzayev (Farg'ona viloyati);
3-o'rin: Dilshod Negmurodov (Buxoro viloyati).

Jamoaviy hisobda:

- 1-o'rin: Andijon viloyati;
2-o'rin: Farg'ona viloyati;
3-o'rin: Buxoro viloyati jamoalari.

G'olib va sovrindorlar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Karting

6 yoshdan 60 yoshgacha

bo'lgan sportchilar bellashdi



Toshkent shahrida "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan karting bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati va birinchiligining ikkinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.



Poytaxtimizda joylashgan "Rohat" kartodromida respublikamizning turli hududlaridan kelgan 6 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan karting sportchilari "Mikro", "Mini" "Super mini", "OK-KF junior", "KZ" va "4 T" kabi sinflarda o'zaro bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi: O'zbekiston ochiq chempionati:

"OK-KF junior" sinfida:

- 1-o'rin: Artyom Usheka (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Amir Hamrayev (Toshkent shahri);
3-o'rin: Daniil Shevsov (Toshkent shahri).

"OK-KF" sinfida:

- 1-o'rin: David Akopyan (Buxoro viloyati);
2-o'rin: Kamoliddin Najmiddinov (Toshkent shahri);
3-o'rin: Ivan Barishev (Sirdaryo viloyati).

"KZ" sinfida:

- 1-o'rin: Ayder Haydarov (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Kristina Shipkova (Toshkent shahri);
3-o'rin: Farrux Muratov (Toshkent shahri).

"4 T" sinfida:

- 1-o'rin: Vladislav Korobkov (Sirdaryo viloyati);
2-o'rin: Adaviye Krilova (Toshkent shahri);
3-o'rin: Ivan Barishev (Sirdaryo viloyati).

Umumjamo'a hisobida:

- 1-o'rin: Toshkent viloyati;
2-o'rin: Toshkent shahri;
3-o'rin: Sirdaryo viloyati jamoalari.

O'zbekiston birinchiligining ikkinchi bosqich musobaqasi:**"Mikro" sinfida:**

- 1-o'rin: Kirill Konyuxov (Toshkent shahri);
2-o'rin: Kirill Shevsov (Toshkent shahri).

"Mini" sinfida:

- 1-o'rin: Rustam Hamrayev (Toshkent shahri);
2-o'rin: Daniil Usheka (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Milana Kleyen (Namangan viloyati).

"Super mini" sinfida:

- 1-o'rin: Vladislav Kim (Toshkent shahri);
2-o'rin: Anatoliy Korobkov (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Matvey Mochalkin (Sirdaryo viloyati).

Umumjamo'a hisobida:

- 1-o'rin: Toshkent shahri;
2-o'rin: Toshkent viloyati;
3-o'rin: Namangan viloyati jamoalari.

Yuqori o'rinlarni egallagan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining medal, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Qahramonlar nomi barhayot

Mustaqillik uchun kurashmoq kerak!



O'g'il bola sevar avtomobilni,
Samolyotni sevar qanotli davkar.
Bo'lar el bolasi bolaligidan
Askar bo'laman der, Vatanga askar.

Dulduldek uchirding po'lat tulporni,
Orzu qilgan eding, tole bo'ldi yor.
Harbiy libos kiyding alp qomatingga,
Vatanning askari bo'lding, Doniyor!

Onangning erkasi eding, sho'x o'g'lon,
Minganding tolchiviq – Boychibor-chavkar.
Ulg'ayding haqiqiy Alpomish bo'lib,
Botir askar bo'lding, Vatanga askar!

Askarlik osonmas, askarlik – xizmat,
Askar bo'lish – tatish emas asal-qand.
Yigitlik burchini mardona o'tab,
Harbiy unvon olding – jangovar serjant!

Vatan xizmatiga shay turding safda,
Hech qanday to'siqni qilmading pisand.
Ona Vatan chorlab, da'vat qilganda
Arslondek jang qilar sheryurak desant.

Toki yaralgandan buyon bu dunyo
Jaholat tinch turmas, qo'zg'aladi dov.
Mustaqillik, tinchlik – ilohiy ne'mat,
Shu ne'matga hasad qilar yovuz yov.

Mustaqillik yillarida qurbon bo'lgan serjant
Doniyorbek Tojiboyev va uning jangovar
safdosklariga – Vatan qahramonlariga
bag'ishlanadi.

Ikki minginchi yil bosh ko'tardi yov,
Tahlikada qoldi osuda hayot.
Askarlar Vatan deb qalqdi oyoqqa,
Sariosiyoga uchdi samolyot.

Tog'lar, baland tog'lar, tubsiz daralar,
Har qadamda archa, xarsangtosh, buta.
Dushman yashirinib, qo'ygan pistirma,
Tog'dagi so'qir jang xavflidir juda.

Qoyalar ortida beshta qishloq bor,
O'sha atroflarda gazanda uya.
Qilichning damiday bir o'tkir so'qmoq,
U yog'i tikka jar, u yog'i qiya...

Bu tog' bizning Vatan, bizning tog'imiz,
Bu dara bizniki, dushmanlarga yot.
Tog'imizni yovdan tozalash uchun
Botirlarga qanot bo'ldi vertolyot.

Darada tarqalib ketdi bo'linma,
Qalin archazorga burkangan qoya.
Askarlar tekshirar, nazardan qochmas
Har bitta pana joy, har bitta soya.

Tish-tirnog'i bilan qurollangan yov
Xarsanglar ortiga berkinib olar.
Nogoh ro'paradan chiqar gazanda,
Jangchi o'q yomg'iri ostida qolar.

Radioaloqadan yangraydi ovoz:
– Qarshimizda dushman, askar, bo'l ogoh!
– Hujumga o'taman! Pana qil! O't och!
– O'q yedim... Ehtiyot bo'ling, do'stlar, oh!

Mardona kurashdi jasur askarlar,
Vatanning boshidan aridi ofat.
Yo'q qilindi dushman harbiy bazasi,
Bizning bo'linma ham ko'rdi talafot.

Navqiron yoshida shahid o'g'lonlar...
Ular jasorati porloq xotira.
Mustaqillik uchun kurashmoq kerak,
Bu jang yodimizdan chiqmaydi sira!



Rustam MUSURMON,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5980
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 050 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya